

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

2.1.

**SPORT PEDAGGOIKASI MODULI BO‘YICHA O‘QUV –
USLUBIY MAJMUA**

**Malaka oshirish
tuzilishi:**

**Tinglovchilar
kontingenti:**

**Sport ta'lim muassasalari psixologlari
malaka oshirish kursi uchun**

Sport ta'lim muassalarining psixologlari

Toshkent – 2023

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022-yil 29 - dekabrda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

A. A. Akmalov - “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida prof.v.b
ped. fan. nom., dosent.

Taqrizchilar:

Z.Dexkambaeva - TDPU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida
dotsent , p.f.n.

F. Xo‘jaev – Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida,
professor

“Sport pedagogikasi” moduli bo‘yicha o‘quv – uslubiy majmua

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2023 - yil __5__ yanvarida
o‘tkazilgan __1__-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

J.Pulatov

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi:

Sport ta'lim muassasalari psixologlari (keyingi o'rinlarda tinglovchi) trenerlarni mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonlariga va sportchilarni mashg'ulotlarga pedagogik tayyorlash haqidagi bilimlarini takomillashtirish, sport pedagogikasi haqidagi zamonaviy tushunchalar bilan tanishtirish, Trenerning kasbiy-pedagogik faoliyati. O'quv-mashq jarayonining mohiyati va tarkibiy qismlari. O'quv-mashq mashg'ulotlarini o'tkazish metodlari, tasnifi va qo'llanilishi. Ta'limning tashkiliy shakllari va vositalari. Trenerning pedagogik mahorati va uning tarkibiy qismlari. Jismoniy tarbiya va sport ta'limida pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish va takomillashtirish.

Modulning vazifalari:

- tinglovchilarni sport faoliyatiga ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va sport pedagogikasi fanining maqsad va vazifalari haqidagi bilimlarni shakllantirishni;
- sportchini metodik va taktik jihatdan tayyorlashda pedagogik asoslari;
- sport turlari bo'yicha sportchilarni pedagogik jihatdan tayyorlashning dolzarb masalalarni;
- mashg'ulot jarayonlarni sport turlarini egallashdagi ahamiyatini;
- mashg'ulot jarayonining pedagogik asoslarini;
- motivlar mashg'ulot faoliyatni samaradorligini oshiruvchi vosita ekanligini;
- innavasion metodlarni sport faoliyati jarayonida qo'llashning samaradorligini;
- tinglovchilarda zamonaviy pedagogik metodlar va testlarni o'z amaliy faoliyatlarida qo'llay olishni;
- trener qobiliyatni sport faoliyatida shakllanishi kabi bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

“Sport pedagogikasi ” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya va sport turlaridayuzaga keladigan pedagogik muammolarni hal etish usullari;
- sportchilarni mashg'ulotlar jarayonida o'z- o'zini nazorat qilish va boshqarish yo'llari;

- sportchilarni musobaqa va musobaqadan so'ng ularni pedagogik - psixologik tayyorlash tushunchasi;
- jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi haqidagi yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalari haqida **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- tinglovchilar sportchini texnik va taktik jihatdan tayyorlashda pedagogik omillarni hamda sport turlarida sportchini pedagogik jihatdan tayyorlashning dolzarb masalalari haqida;
- sportchi organizmidagi fiziologik jarayonlar va qonuniyatlar haqida;
- sportchining pedagogik - psixologik tayyorlashning individual xususiyatlarni bilish muhim ahamiyatga egaligi;
- Sportchi faoliyatida pedagogik - psixologik muammolarni aniqlab olish, tahlil etish, o'z- o'zini baholash va umumlashtirish;
- sport faoliyatida pedagogik - psixologik muammolar va kontseptsiyalarga doir keyslar tuzish kabi **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- sportchilar bilan pedagogik ,metodik ,psixologik maslahat ishlarini tashkil eta olish va zamonaviy psixologik usullardan samarali foydalana olish;
- sportchilar bilan pedagogik ,metodik ,psixologik maslahat ishlarini tashkil etishda innovasion usullardan samarali foydalana olish malakasiga ega bo'ladi;
- sport faoliyatida ta'lim va tarbiya jarayonini o'zviylikini ta'minlay olishi;
- sportchilarni mashg'ulot, musobaqa oldi, musobaqa va musobaqadan so'ng jarayonidagi holatlarini kuzata olish, taqqoslash hamda baholay olishi;
- motivlar mashg'ulot faoliyatni samaradorligini oshiruvchi vosita ekanligi haqida malakalarga;
- sportchilarni harakat motivatsiyasini boshqarishda texnik va taktik jihatdan pedagogik - psixologik tayyorlash kabi **malakalariga** ega bo'lishi zarur. Malaka oshirish kursida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalardan kasbiy faoliyatda foydalanish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi:

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Sport psixologiyasi", "Sport ta'limini tashkil etishni ng normativ-huquqiy hujjatlari", "Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari", "Sport mashg'uloti nazariyasi va uslubiyati", "Sport ta'lim muassasasida ish yuritish va ijro intizomi" kabi o'quv modullari bilan uzviy

bog‘langan holda trenerlarning kasbiy - pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta‘limidagi o‘rni:

“Sport pedagogikasi ” moduli sport psixologiyasi va boshqa amaliy sohalar bilan integrallashgan holda , trening sport faoliyatidagi kasbiy xarakteristikasi, sport mashg‘ulotlari va o‘quv - masg‘ulot jarayonining pedagogik - psixologik va g‘alabaga ishonirish kompetensiyalari hamda zamonaviy yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlarga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlari				
		Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
		Jumladan				
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1	Trenerning kasbiy-pedagogik faoliyati.	2	2			
2	O‘quv - mashq jarayonining mohiyati va tarkibiy qismlari.	2	2			
3	O‘quv-mashq mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodlari, tasnifi va qo‘llanilishi.	2	2			
4	Ta‘limning tashkiliy shakllari va vositalari.	2		2		
5	Trenerning pedagogik mahorati va uning tarkibiy qismlari.	2	2			
6	Jismoniy tarbiya va sport ta‘limida	2		2		

	pedagogik texnologiyalar.					
	Jami:	12	8	4		

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1-mavzu. Trenerning kasbiy-pedagogik faoliyati.

Reja:

1.1. Trenerning kasbiy faoliyati.

1.2. Trenerning pedagogik faoliyati.

Sport ta'limi jarayonida strategiya va strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, o'quv – mashq jarayonini loyixalashtirish, innovatsion, kreativ faoliyatni tashkil yetish, sport ta'limini boshqarish jarayonlariga tizimli yondoshuvlar, hamda boshqaruv usullari, metodlari va prinsiplaridan ijodiy, samarali foydalanishdagi kasbiy, texnologik yondoshuv darajasi. Sportchi va shug'ullanuvchilarga ijtimoiy, ilmiy, nazariy va amaliy tajribasi, hulq - atvori, axloq me'yorlarini singdirish jarayonida o'zaro hamkorlikdagi faoliyati, aniq harakat va vaziyatlarni tashkil yeta oladigan shaxs.

2-mavzu. O'quv-mashq jarayonining mohiyati va tarkibiy qismlari.

Reja:

2.1. O'quv-mashq jarayonining mohiyati.

2.2. O'quv-mashq jarayonining tarkibiy qismlari.

O'quv – mashq jarayonida Jismoniy tarbiya mohiyati madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish. Inson organizmning jismoniy tayyorgarlik va funksiyalarining garmonik rivojlanishiga, kishining salomatligini mustahkamlashga va uzoq umr ko'rishiga yordam berish. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid maxsus bilimlar bilan qurollantirish; amaliy va sport xarakteridagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish;

3-mavzu. O'quv-mashq mashg'ulotlarini o'tkazish metodlari, tasnifi va qo'llanilishi.

Reja:

3.1. O'quv-mashq mashg'ulotlarini o'tkazish metodlari

3.2. O‘quv-mashq mashg‘ulotlarini tasnifi va qo‘llanilishi.

O‘quv-mashq mashg‘ulotlarini metodlari: tayyorlovchi — asosan xarakteristik texnikasini o‘zlashtirishga qaratilgan; rivojlantiruvchi - jismoniy va psixologik qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan aralash (kombinatsiyalashtirilgan) bir vaqtda ham jismoniy sifatlarni va harakatlar texnikasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shakllar. O‘quv-mashq mashg‘ulotlarini tasnifi: gimnastika, sport, o‘yinlar va turizm; jismoniy mashqlar asosan insonning jismoniy fazilatlariga qo‘yadigan talablar bo‘yicha tasniflash (tezlik - kuchli mashqlar turlari; siklik harakatlarda chidamlilikning ustun namoyon bo‘lishini talab qiladigan mashqlar turlari); xarakter; qat‘iy choralar (vaqt, masofa, vazn va boshqalar) sharoitida muvofiqlashtirish va boshqa qobiliyatlarning namoyon bo‘lishini talab qiladigan mashqlar turlari.

5- mavzu. Trenerning pedagogik mahorati va uning tarkibiy qismlari.

Reja:

5.1. Trenerning pedagogik mahorati.

5.2. Trenerning mahoratining tarkibiy qismlari.

Kasbiy ko‘nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui; san‘at darajasidagi mahorat; pedagogik kompetentlik, mohirlik, bilimdonlik; yangiliklarni o‘rganishi va o‘rgatishi; sport ta‘limi jarayonini tashkil yeta olish; shug‘ullanuvchilar tanlagan sport sohalarini o‘rganishda yoshi, fiziologik imkoniyatiga mos ichki his - tuyg‘u, qiziqish ko‘nikmasini shakllantirish; do‘stona va samimiy munosabatda bo‘lishi. Ishonchga kirish, ishontira olish; mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasini hosil qilish; nutq mahorati; qalbga yo‘l topa olish; muloqotga kirishuvchanlikda kommunikativlik kabilar. Trenerning avtoritar, liberal, demokratik yondoshuvlari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

4-mavzu. Ta‘limning tashkiliy shakllari va vositalari.

Reja:

4.1. Ta‘limning tashkiliy shakllari.

4.2. Ta‘limning vositalari.

Ilmiylik; tizimlilik va izchillik; tarbiyalovchilik xarakteri; nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi; ko‘rsatmalilik; onglilik va mustaqillik; faollik, bilim va ko‘nikma, malakalarni puxta o‘zlashtirish; tahsil oluvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mosligi; ta‘lim, tarbiya va rivojlanishning birligi. bilish-ta‘lim jarayonining metodologik asosi

6-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport ta‘limida pedagogik texnologiyalar.

Reja:**6.1. Jismoniy tarbiya va sport ta'limida pedagogik texnologiyalar.**

Sport ta'limida innovatsiyalar - sport ta'lim tizimida yoki o'quv - mashq jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Pedagogik trening, Pinbord, Muzyorar, Keys stadi, Klaster - shaxsga intensiv ta'sir ko'rsatish metodlari majmui;

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediyaga mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон СТРАТЕГИЯСИ . Тошкент: Ўзбекистон. – 2022й. 458 б.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 400b.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 488 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 592 б.

II. Normativ - huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Қонуни. 04.09.2015й
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmish tarzini keng tadbiiq etish va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakillantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5713331>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сонли қарори
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5368-сонли Фармони.
7. Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 14 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ҳузурида Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни илмий-методик таъминлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш маркази фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 658–сонли қарори.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “2025-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-son qarori. <https://lex.uz/docs/5713410>

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassisلامي qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3863838>

III. Махсус адабиётлар

1. Abdukarimov H. Umumiy pedagogika. -Toshkent: Yangi asr avlodi., 2012.-110 b.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 69 b.
3. Akramov A.K. O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. T., 1997й.
4. Abdumalikov R. O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixinio'rganish masalalari. T., Bilim, 1994й.
5. A.Akmalov Sport, malaka oshirish ta’limida innovatsion va interfaol texnologiyalar . uslubiy qo‘llanma., “Umid Design” T.: 2022й.70 б.
6. Djurayev R. X., Tolipov O‘. Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent: O‘zPFITI. - 2008. 125 b.
7. Зуннунов А. Педагогика тарихи., Олий ўқув юртлари учун дарслик, Т.: Шарқ, 204й. 335б.
8. Zunnunov A. va boshqalar O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. –Toshkent: Fan, 1996. – 350 b
9. Salamov R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, Darslik – Toshkent, 2015.й.
10. Мунавваров А.Қ. тахрири остида .”Педагогика” дарслик - Т.: Ўқитувчи, 1996й .- 200б.
11. Yo‘ldoshyev J.G‘. Xorijda ta’lim -Toshkent: Sharq, 1995.-92 b.
12. Toxtaxodjayeva M., Nishonova S., Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, O‘qituvchi - 2006.- 345
13. Под редакцией П.И. Пидкасистого. “Педагогика”, учебник- М.: 2004. 604.стр.
14. Хошимов К., Очилов., Ўзбек педагогикаси анталогияси.Т.: “Ўқитувчи” 1995й. 460б.

15. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.- 352 b.

16. Eshnazarov J. Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish . T., 2008й.

17. Белоусова В.В., Решетень Н.Н., тахрири остида Педагогика, Физкультура институтлари учун дарслик, Т.: Ўқитувчи 1983й. 302б.

18. Хо‘jaev F. . O'zberkistonda jismoniy tarbiya. T., O'qituvchi, 1997й.

IV. Электрон таълим ресурслари

1. www.minsport.uz
2. www.uzedu.uz
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.uz-djti.uz
5. www.sportedu.uz
6. www.olympic.uz
7. www.ziyonet.uz.
8. www.infocom.uz.
9. www.edu.uz

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

O‘quv – mashq jarayonining sifat va samaradorligi uning shakliga emas, qo‘llanilayotgan metodlarga ham bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida o‘qitish metodlari markaziy o‘rin egallaydi.

An’anaviy mashg‘ulot shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun mashg‘ulot jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida interfaol metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

Interfaol metodlar deganda - ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;

- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod mavzu bo'yicha sportdagi tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach trener - o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Mavzu: “Sport ta’limidagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Tushunchalarga mos keladiganlarini yozing	Qo‘shimcha ma’lumot
Trener		
Kompetensiya		
Strategiya		
Taktika		
Insonparvarlik		
Sport razvedkasi		
Assimilizatsiya		
Autotrening		

--	--	--

“INSERT” JADVALI

Mustaqil ta’lim vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida tinglovchi faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi: Tinglovchilar “Insert” jadvalini to‘ldirish qoidasi bilan tanishadilar va alohida o‘zlari to‘ldiradilar.

Matnni o‘qish jarayonida olgan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtiradilar va jadvalda belgilangan belgilarga muvofiq jadval ustunlariga “kiritadilar”.

“V” - men bilgan ma’lumotlarga mos;

“ - “ - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash,
to‘ldirish talab etiladi.

Инсерт жадвали

V	+	-	?

14

“KEYS – STADI ” TEXNOLOGIYASI

“**Keys – stadi**” - inglizcha “case” va “stadi” soʻzlarining birikuvidan hosil qilingan boʻlib, (“case” – oʻzbek tilida aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan metodidir. “Keys – stadi” boshqa taʼlim metodlaridan farqli ravishda real vaziyatlarni oʻrganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea - hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalaniladi. Agar sport oʻquv jarayonida maʼlum bir maqsadga erishish yoʻli sifatida qoʻllanilsa, metod xarakteriga ega boʻladi. Sportda aniq jarayonni tadqiq etishda bosqichma - bosqich, maʼlum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni oʻzida aks ettiradi.

Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun

foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“KEYS METODI” NI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI



«Klaster» metodi

«Klaster» metodi- ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bema'lol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yunaltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Unday foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromida bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil g‘oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «Klaster» metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan ta‘lim oluvchilar guruh asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlari jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ushbu metod guruh a‘zolari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarni o‘yg‘unlashtirish hamda ular o‘rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodini amalga oshirish qoidalari:

- nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing;
 - fikringizning sifati to‘g‘risida uylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring;
 - yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihtlariga e‘tibor bermang;
 - belgilangan vaqt nixoyasiga yotmaguncha, yozishdan tuxtamang;
 - agar ma‘lum muddat biror bir g‘oyani uylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang;
 - bu harakatni yangi g‘oya tug‘ulguncha davom ettiring;
 - muayan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling;
 - g‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarning ko‘rsatishini cheklamang.
- bo‘ladi.

“Chaynvord” metodi

“Chaynvord” metodi- ta‘lim oluvchilarning bilimlarini charhlashga qaratilgandir. Ushbu metoddan yangi mavzuni o‘tishdan oldin ta‘lim oluvchilarning birlamchi bilimlarini aniqlash va

faollashtirish maqsadida, yoki o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida ishlatiladi.

Metodning amalga oshirishi: Ta’lim oluvchilar raqamli kartochkalar yordamida 4-5 ta kichik guruhlariga bo‘lib olinadi. Har bir kichik guruhga oldindan tayyorlangan chaynvord tuzilgan kartochka-vazifalar tarqatiladi. Metoddan asosiy maqsad berilgan vazifani qaysi guruh tez va to‘g‘ri bajarish va bilimlarini aniqlashdir. Chaynvord - kartochkaning chap tomonida savollar berilgan bo‘lib, o‘ng tomoniga esa savollarga javob yozilishi kerak.

Yozish sharti qo‘yidagicha: birinchi savol javobining oxirgi harfi ikkinchi savol javobining bosh harfidan boshlanishi kerak. Yozish shartlari yuqorida berilgan shartlar asosida bajariladi.

To‘g‘ri javoblar soniga qarab berilgan vazifalar baholash mezonlari asosida baholaniladi.

Mazkur metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchilarning faolligi oshadi, mavzuga bo‘lgan qiziqishi yuqori darajada bo‘ladi hamda o‘z bilimlarini baholash imkoniyati bo‘ladi. Ushbu metodni yakka tartibda, juftlikda va kichik guruhlarda amalga oshirish mumkin.

“Aqliy hujum” metodi

“Aqliy hujum” (g‘oyalarni ishlab chiqish) metodida ishtirokchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar uni yechish uchun shaxsiy g‘oyalarini ilgari suradilar.

Aqliy hujum, oldindan ularning tanqidisiz, mavzuga nisbatan erkin fikrlarni ishlab chiqishdagi harakatidir “Aqliy xujum” metodi serqirra qo‘llanish xususiyatiga ega “Aqliy hujum” metodining vazifasi kichik

guruhlar yordamida yangi-yangi g'oyalarni yaratishdir (kichik guruhning birgalikdagi kuchi - uning alohida a'zolarining kuchlari yig'indisidan ko'p bo'ladi). "Aqliy hujum" metodini amalga oshirish muammoni hal qilayotgan kishilarning ko'prok aqlbovar qilmaydigan va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni muddao bo'lishi mumkin. Bu aqliy hujum negizidagi tamoyildir. Aqliy hujum to'xtatilgandan so'ng, barcha aytilgan g'oyalar muhokama qilinib, eng maqbuli tanlanadi. Yakka tartibda yoki juftlikda, amaliy mashg'ulotlarda esa 4-7 kishidan iborat kichik guruhlarda shuningdek, guruh bo'yicha ham o'tkazish mumkin. Aqliy hujum mashg'ulotlarda ta'lim oluvchitinglovchilar faolligini oshirishga, charchoqni yo'qotishga, g'oyani izlashga sharoit yaratadi.

Samarali aqliy hujum uchun bosqichlar:

1. Ishtirokchilarni majburiy bo'lmagan tarzda joylashtiring.
2. Fikrlarni bayon qilish uchun qog'oz va yozuv taxtasini tayyorlang.
3. Aqliy hujumning ishtirokchilariga muammoni yetkazing.
4. Ish tartibini aniqlang:
 - a) fikrlar tashlanganda hech qanday baholashlar bo'lmasin.
 - b) doimiy fikrlash ozodligi.
 - v) qancha aqli fikr ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.
 - g) boshqalarning fikrlarini rivojlantiring.
5. Fikrlar to'g'risida surishtiring va tezda ularni yozing.
6. Kog'oz varag'i to'ldirilganda, uni muhokama uchun qo'ying.
7. O'z g'oyalaringizni qo'shib yangi g'oyani rag'batlantiring.

8. Boshqalarning fikrini tanqid qilish yoki ustidan kulish kerak emas, kulgiga yo‘l quymang.

“FSMU” metodi

Ushbu metod munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o‘tkazishda yoki o‘quv reja asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach, qo‘llanilishi mumkin, chunki bu metod tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan qatorda ta’lim oluvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarni tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

Ushbu metod ta’lim beruvchi tomonidan tarqatilgan qog‘ozga tinglovchilarning o‘z fikrlarini aniq, qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Bu metod ko‘yidagicha amalga oshiriladi:

har bir tinglovchi yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va mashg‘ulot yakunida kichik guruhlarda ishlaydilar.

Har bir tinglovchiga FSMU metodining 4-bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F – FIKRINGIZNI BAYoN ETNG

S – FIKRINGIZNI BAYoNIGA SABAB KO‘RSATING

**M – KO‘RSATGAN SABABINGIZNI ISBOTLAB MISOL
KELTIRING**

U – FIKRINGIZNI UMUMLASH TIRING

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda ifoda etadilar. Vazifani bajarib bo'lgandan keyin, tinglovchilar kichik guruhlariga ajratiladi va guruhlariga FSMU yozilgan tarqatma material beriladi. Kichik guruhda har bir ta'lim oluvchi o'zining yozgan javobini o'qib tanishtiradi, so'ngra guruh azolari birgalikda muhokama qilib, umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar.

FSMU metodining afzalliklari:

- ✓ o'z fikrini himoya qilishni o'rganadi;
- ✓ erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazisha olish qobiliyati rivojlanadi;
- ✓ ta'lim oluvchilar bahslashish madaniyati shakllanadi.

“Muammoli vaziyat” metodi

“Muammoli vaziyat” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil

fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;

- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

“Bahslashuv” texnologiyasi

Tinglovchilarnin o'zaro munosabatlarini yanada faollashtirish maqsadida bahslar tashkil etib turish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday bahslar tinglovchilarni o'z fikrlarini jamlab olishga, hayotga va turli muammolarga bo'lgan munosabatlarini aniqlab olishga katta yordam beradi. Bahs mavzularini tinglovchilarning o'zlari tanlashlari va taklif etishlari mumkin. Bu mavzular ularni bahsga chorlovchi, muammoli, qiziqarli bo'lishi kerak, aks holda bahs davomida tinglovchilar o'z fikrlarini bayon eta olmaydilar yoki bahsga qo'shib o'z fikrlarini isbotlab, himoya qila olmaydilar. Bahslar tinglovchilarni ba'zi yanglish fikrlarga munosabat bildirishga o'rgatadi, atrofdagi bo'layotgan voqealarni tushungan holda to'g'ri sharhlashga, o'z fikrlarida turishga, noo'rin fikrlarga o'z vaqtida munosabat ko'rsatishga hamda har bir fikrni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlab olishga, shu bilan bir qatorda hamkasblari bilan suhbat qilish, bahslashish, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olish madaniyatiga o'rgatadi.

KBI (kuzatish, bahslashish, ishontirish) texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchilarni hayotda faol o'rnini topshlarini, peshqadamlik va sardorlik sifatlarini, jamoada ishlash ko'nikmalarini, shuningdek, o'z g'alar fikrini hurmat qilgan holda dalil

keltira olish, o‘z fikrini isbotlay olish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish mahoratlarini hamda murosaga kelish, izlanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Bu texnologiya qo‘llaniladigan mashg‘ulot tinglovchilardan oldindan bo‘ladigan tayyorgarlikni talab qiladi. Mashg‘ulot mavzusi tinglovchilarga oldindan ma’lum qilinadi, vazifalarni bajarish uchun tayyorlanishga beriladigan aniq vaqt, mavzu mazmuni, uning murakkabligi va darajasiga qarab belgilanadi.

Ushbu mashg‘ulot bahs - munozara uslubiga asoslangan bo‘lib, o‘zining aniq o‘tkazilish vaqti va tartibiga egadir. O‘qituvchi dastlab tinglovchilarni mashg‘ulot o‘tkazish tartib-qoidalarini bilan tanishtiradi va ularni kichik guruhlariga ajratadi.

INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING ASOSIY BESH OOIDASI

1 - QOIDA

Ishlash uchun joyni tayyorlashga jiddiy qarash kerak. Bu avvaliga ko‘ringandek oddiy masala emas. Auditoriyani shunday tayyorlash kerakki, bunda ishtirokchilar kichik yoki katta

2 - QOIDA

da ishlash uchun o‘tirishlariga oson bo‘lishi kerak. Ya’ni tinglovchilarga jismonan qulay sharoit yaratilishi kerak.

Jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo‘lish lozim. Bu haqda boshidan kelishib olish kerak va uni buzmaslik lozim. Masalan, hamma tinglovchilar har bir nuqtai nazarga sabrli bo‘lib, so‘z erkinligini, uning fikrini xurmat qilishlari kerak.

3 - QOIDA

Tinglovchilarning guruhlarga bo‘linishiga jiddiy e’tibor bering. Avvaliga, uni o‘zi xohishiga ko‘ra qurish kerak.

4 - QOIDA

Keyin tasodifan tanlash tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tinglovchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo‘lishi kerak. Tinglovchilarning psixologik tayyorgarligiga ko‘maklashish lozim. Gap shundaki, mashg‘ulotga kelganlarning hammasi ham u yoki bu ish shakliga bevosita kirishishga ruhan tayyor emaslar. Bu borada mashq qilishlar, tinglovchilarning ishda

5 - QOIDA

faol ishtiroklari uchun doimiy rag‘batlantirishlar, tinglovchining o‘zini namoyon etish uchun imkoniyat yaratish foydali bo‘ladi.

Interfaol metodlardan foydalanganda guruhda tinglovchilar soni ko‘p bo‘lmasligi kerak. Ishtirokchilar soni va ta’lim berish sifati bir-biriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. Odatda agarda ishda ishtirokchilar soni 25 kishidan oshmasagina, ish samarali bo‘ladi. Faqat shu shart bajarilganda eng maqbul tarkibi 4-6 kishidan iborat, kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin.

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1-mavzu. Trenerning kasbiy-pedagogik faoliyati.

Reja:

1.1. Trenerning kasbiy faoliyati.

1.2. Trenerning pedagogik faoliyati.

Sport ta'limi jarayonida strategiya va strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, o'quv – mashq jarayonini loyixalashtirish, innovatsion, kreativ faoliyatni tashkil yetish, sport ta'limini boshqarish jarayonlariga tizimli yondoshuvlar, hamda boshqaruv usullari, metodlari va prinsiplaridan ijodiy, samarali foydalanishdagi kasbiy, texnologik yondoshuv darajasi. Sportchi va shug'ullanuvchilarga ijtimoiy, ilmiy, nazariy va amaliy tajribasi, hulq - atvori, axloq me'yorlarini singdirish jarayonida o'zaro hamkorlikdagi faoliyati, aniq harakat va vaziyatlarni tashkil yeta oladigan shaxs.

1.1. Trenerning kasbiy faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida”gi Qarorida: “Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni kasbiy, ma'naviy - axloqiy saviyasini oshirish, sport ta'lim tizimini ilmiy - metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; O'quv - mashg'ulot jarayoniga, xususan, sport ta'lim muassasalari amaliyotiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakllari va usullarini joriy etish” – ta'kidlangan. Mazkur qarorda tasdiqlangan Nizomda: “Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning o'quv mashg'ulotlari, o'quv-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ilg'or ta'lim texnologiyalari va xalqaro tajribadan foydalanish, ilmiy va o'quv - metodik tadqiqotlar olib borish hamda amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini mustahkamlash; Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali

jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish" kabi talablar belgilangan.

Malaka oshirish va sport ta'lim tizimida, sportchilarni barkamol etib tarbiyalashda pedagogikaning nufuzi ortib bormoqda.

Pedagogika fani - shaxsni go'dakligidan boshlab to umrining oxirigacha har tomonlama rivojlantirishda ma'naviy – axloqiy, jismoniy sifatlarni tarbiyalash, hayot va turmush o'zbekida muayyan faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishni o'rgatish va tahlil hamda tadqiq etishdir. Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va shaxsning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. Pedagogika fanining **maqsadi** – o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol (komil) inson va kasb-hunarli qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va quyidagi talablarni amalga oshirish yo'llarini o'rgatadi:

Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.

Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.

Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish. Ta'lim tashkilotlari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.

Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.

Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya

usullari bilan qurollantirish.

Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning shart- sharoitlarini o'rganish.

Jismoniy tarbiya va sport ta'lim - tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Oila pedagogikasi bo'yicha ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Pedagogika fanining asoslari: ta'lim – tarbiya jarayonining mazmuni, tamoyillari, qonuniyatlari, bosqichlari, samarali shakllari, metodlari, vositalari, texnologiyalari. Ustoz, o'qituvchi, trener hamda ta'lim oluvchi munosabatlarida o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib shakllantirishda ta'lim - tarbiyaning mazmuni, didaktik qonuniyatlari asosida amalga oshirish yo'llarini o'rgatadi.

Pedagogika faning asosiy vazifalari: barkamol shaxs, malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon mohiyatini o'rganish; shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarni aniqlash; rivojlangan mamlakatlar ta'lim tajribasi asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish; ta'lim tashkilotlari va ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash; ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish; pedagog kadrlarni mutaxassislik bilimlari, ta'lim – tarbiyaning ilg'or usullari bilan malakasii oshirish; ijtimoiy, jismoniy tarbiya yo'nalishlarini o'zaro aloqadorligi shart – sharoitlarini o'rganish; ta'lim – tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni shakl va usullaridan foydalanish; oila tarbiyasi yuzasidan ota – onalar uchun ilmiy – metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va b.

Pedagogika fani haqidagi mazkur ta'rif, ma'no va mazmuniga odamlarning butun umri davomidagi xulq – atvori, odob – axloqi, milliy an'analarga sadoqatlariga ustozlar, o'qituvchilar, trenerlar, tarbiyachi(keyingi o'rinlarda pedagog)lar hamda tarbiyalanuvchining to'la amal qilishi ilm, fan, milliy qadriyat, ma'naviyat, ma'rifat, iymon, vijdon kabi fazilatlarini o'zlashtirib barkamol, komil inson bo'lib faoliyat ko'rsatishlariga xizmat qiladi.

Sport pedagogikasi – yurtimiz va xorijlik olimlarning e'tirof etishlaricha yosh avlod va kattalarni jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha ta'lim – tarbiya jaryonida bilim, ko'nikma, malakalarini sifat va samaradorligini oshirishga yordam beradigan integral o'quv fanidir. Olimlarning fikricha, sport pedagogikasi jismoniy tarbiya va sport fanlarida “inson munosabatlari va tashqi dunyo aloqalari bilan belgilanadigan, pedagogik tamoyillar asosida pedagog, trener va shug'ullanuvchilar o'rtasidagi munosabat va muloqot bilan tavsiflangan jismoniy sifat shakllaridir”- deb e'tirof etilgan.

Sportda nazariy, pedagogik, didaktik bilimlar, tizimli va amaliy jismoniy mashqlarning sport yutuqlari maqsadi bilan integrallashgan holda amalga oshirishning muhim shartidir. Sport pedagogikasining dunyo tammaduni (sivilizatsiyasi) fonida rivojlanish bosqichilari: sport fanining ajralmas va yaxlit qismi sifatida nazariy shakllanishida ob'ektiv mavjud va amaldagi qonuniyatlarni o'rganish va amalga oshirish bo'ldi. Sport pedagogikasi fani rivojlanishining navbatdagi bosqichlari talablari asosida: integrallashgan, barqaror ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlarga asoslangan uzluksiz rivojlanishi jihatlarini bayon qilindi. Bunday mas'uliyat sport pedagogikasi nazariyasi ushbu

atamaning keng ma'nosida shaxsning yutuqlariga hissa qo'shishiga ishonch paydo qiladi.

Sport pedagogikasi har bir davrda qanday rivojlanish darajasiga erishganligi, u qanday sifat muammolarini hal etishi kerakligi, sport fani tizimidagi asosiy muammolar o'rtasidagi tafovut darajasi qanday ekanligini pedagogikaning tegishli bo'limlarida bilishni taqazo etadi.

Sport ta'limi tashkilotlarida mutatasislarni pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida: "Pedagogik faoliyat shug'ullanish huquqi: "Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy - axlokiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega.

Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega. Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga kayta tayyorlash kurslaridan o'tgandan keyin ta'lim tashkilotlarida (bundan oliy ta'lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi."- deb e'tirof etilgan.

Pedagog - ta'lim – tarbiya jarayonida maxsus ma'lumot bo'yicha tayyorgarlikka ega katta bir avlod o'z sohasi bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini quyi avlodga o'rgatuvchi ijodkor shaxs.

O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib tamoyillari to'g'risida"gi 2021 yil 12 – oktyabrdagi O'RBQ - 721 sonli Qonunida: O'zbekiston

Respublikasining 1992 yil yil 14 – yanvarda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘RQ –XII sonli va O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 – sentyabrda qabul qilingan O‘RQ- 394 sonli Qonunlari tahririga quyidagi o‘zgartirishlar kiritilgan:

3 - modda. Asosiy tushunchalarda: O‘RQ – 394 sonli Qonunning: 3-moddasining: yigirma ikkinchi xat boshisidagi “ruxsatnomaga” degan so‘z “malaka sertifikatiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

Yangi taxriri: Trener — trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun malaka oshirish sertifikatiga ega bo‘lgan hamda o‘quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o‘tkazishni, shuningdek sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs;

8-modda. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari:

Yangi taxriri: Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazishga, jismoniy tarbiya va sport sohasida trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etadi;

*O‘zbekiston Respublikasi Sportni Rivojlantirish Vazirining
“O‘zbekiston Respublikasida trenerlik faoliyati to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyruqqa o‘zgartirishlar kiritish haqida” 2022-yil 26 - may, 3-mh-son Buyrug‘idan ko‘chirma:
[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 6-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi,
ro‘yxat raqami 2247-1]*

2. Nizomda: a) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 23-sentabrdagi 211-son “Sport maktablari faoliyatini hamda sport maktablari trenerlari va mutaxassislari mehnatini moddiy

rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida trenerlik, trener-o'qituvchilik va trener-instruktorlik faoliyatini (bundan buyon matnda trenerlik faoliyati deb yuritiladi) amalga oshirish tartibi va yo'nalishlarini belgilaydi.”;

b) 2-bandning beshinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Trener — trenerlik faoliyati bo'yicha malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo'lgan yoki ta'lim muassasalarining sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim yo'nalishini bitirgan (bunda bitiruvchi tegishli sport turi bo'yicha trener lavozimiga ishga qabul qilinganiga uch yildan oshmagan bo'lishi lozim), shuningdek, o'quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs;”;

v) 3-bandning ikkinchi xatboshisidagi “attestatsiyadan o'tmagan” degan so'zlar “malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo'lmagan” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

d) 15-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “kasb-hunar” degan so'zlar “professional ta'lim” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “attestatsiyadan o'tgan” degan so'zlar “malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo'lgan” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

e) 19-bandning to'rtinchi xatboshisidagi “attestatsiyadan o'tgan” degan so'zlar “malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo'lgan” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

j) 21-bandning ikkinchi xatboshisidagi “attestatsiyadan o‘tish” degan so‘zlar “malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo‘lish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

z) 28-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“28. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo‘lgan shaxslarning hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan amalga oshiriladi.”.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.03. 2021 yil, № 31 -31/1 - 1846 sonli xujjati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 – fevraldagi yig‘ilishining 10 - son bayonidan ko‘chirmalar:

2 - bandi: b) fuqarolarni sport tashkilotlariga trenerlar **malakasini oshirish natijasida berilgan sertifikat** asosida belgilangan tartibda trener, (trener – o‘qituvchi) lavozimiga ishga qabul qilish; Bunda , trenerlar malakasini oshirish natijasida berilgan malaka sertifikati: oliy yoki o‘rta maxsus (professional) ta’lim muassasalarining trener kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilaridan - o‘qishni tamomlagan kundan boshlab **uch yilgacha;**

oliy yoki o‘rta maxsus (professional) ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya soxasida kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishlari (trener kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishlaridan tashqari) bitiruvchilaridan - o‘qishni tamomlagan kundan boshlab **bir yilgacha;**

O‘zbekiston Respublikasida "Xizmat ko‘rsatgan sport ustoz" va "Xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi", "Xalq` o‘q‘ituvchisi", "O‘zbekiston iftixori", "Xizmat ko‘rsatgan sportchi" faxriy unvonlariga

hamda jismoniy tarbiya va sport soxasida professor yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslardan - ishga qabul qilingan kundan boshlab **uch yilgacha**;

sportning Osiyo va parosiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha Osiyo o'yinlari, jaxon va Osiyo chempionatlari hamda kuboklarining oxirgi besh yildagi g'olib va sovrindorlari bo'lgan sportchilar va ularni tayyorlagan trenerlardan - ishga qabul kilingan kundan boshlab **uch yilgacha**;

bola parvarishi ta'tilidan qaytgan ayol xodimlardan - bola parvarish ta'tilidan qaytgan kundan boshlab **bir yilgacha** talab etilmasligi;

v) sport tashkilotlariga trener (trener-o'kituvchi) lavozimiga ishga qabul kilishda quyidagi talablarni joriy qilish:

trener kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy yoki o'rta maxsus (professional) ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar – **diplomda ko'rsatilgan sport tyr(lar)i bo'yicha**;

jismoniy tarbiya soxasida kadrlar tayyorlashga yo'naltirigan ta'lim yo'nalishlari (trener kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishlaridan tashkari) oliy yoki o'rta maxsus (professional) ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar - kamida **1- razryadga (kattalar) ega bo'lgan o'z sport tur(lar)i bo'yicha**;

oliy yoki o'rta maxsus (professional) ma'lumotga (jismoniy tarbiya va sport yo'natishlaridan tashqari) ega bo'lgan shaxslar – jismoniy tarbiya ma'lumotiga ega bo'lish nazarda tutilmagan sport –turlari ro'yxatiga kiritilgan va kamida **sprot ustaligiga nomzod unvoniga ega bo'lgan sport tur(lari) bo'yicha** trenerlik faoliyatini amalga oshirish;

g) Tegishli sport turi bo'yicha qayta tayyorlash kurslaridan o'tgan oliy

yoki o‘rta maxsus (professional) ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslarga **qayta tayyorlash kurslarini tamomlaganlik to‘g‘risidagi diplomda ko‘rsatilgan sport turi** bo‘yicha trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini berish;

d) Sport tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan trener (trener - o‘qituvchi)lar **4 yilda kamida bir marta** malaka oshirishlari majburiy etib belgilash;

Bunda, harbiylashtirilgan tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan trener (trener - o‘qituvchi)lar uchun malaka oshirish muddati tizimida harbiylashtirilgan tashkilot va muassasalar mavjud vazirlik va idoralar tomonidan mustaqil belgilash **to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin;**

z) **Tizimida sport tashkilotlari mavjud vazirlik va idoralar uch oy muddatda** sport tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan trener (trener - o‘qituvchi)larni to‘liq monitoringini o‘tkazish hamda malaka oshirish muddati o‘tgan, shuningdek, belgilangan tartibda malaka oshirishga jalb qilinmagan trener (trener - o‘qituvchi)larni (hozirdagi) Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida malaka oshirishdan o‘tishlarini ta’minlasin.

Bunda trenerlar malakasini oshirish natijasida berilgan malaka sertifikatining toifalar bo‘yicha amal qilish tartibi belgilangan.

Trener kasbiy faoliyatida: Sport ta’limi jarayonida strategiya va strategik maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, o‘quv – mashq jarayonini loyixalashtirish, innovatsion, kreativ faoliyatni tashkil yetish, sport ta’limini boshqarish jarayonlariga tizimli yondoshuvlar, hamda boshqaruv usullari, metodlari va prinsiplaridan

ijodiy, samarali foydalanishdagi kasbiy, texnologik yondoshuv darajasi. Sportchi va shug‘ullanuvchilarga ijtimoiy, ilmiy, nazariy va amaliy tajribasi, hulq - atvori, axloq me’yorlarini singdirish jarayonida o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati, aniq harakat va vaziyatlarni tashkil yeta oladigan shaxs.

1.2. Trenerning pedagogik faoliyati.

Jamiyatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishi ta’lim va tarbiya ishlarining qay yo‘sinda olib borilishiga bog‘liqdir. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni sog‘lom va barkamol shaxs taqdiri bilan bog‘liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagog va trenerlar kasbiy faoliyatiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida: “Pedagogik faoliyat shug‘ullanish huquqi: “Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy - axlokiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish xuquqiga ega.

Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish xuquqiga ega. Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga kayta tayyorlash kurslaridan o‘tgandan keyin ta’lim tashkilotlarida (bundan oliy ta’lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi.”- deb e’tirof etilgan.

Trener - pedagog - ta’lim – tarbiya jarayonida maxsus ma’lumot bo‘yicha tayyorgarlikka ega katta bir avlod o‘z sohasi bo‘yicha

o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini quyi avlodga o‘rgatuvchi ijodkor shaxs.

2018 yil 5 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni imzolandi. Ushbu Farmonda quyidagilar ommaviy sportni rivojlantirish va iste‘dodli yoshlarni saralash (seleksiya) sohasida ta‘lim muassasalarining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida — o‘quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sport turi bo‘yicha trenerlarni jalb qilgan holda iste‘dodli yoshlarni saralash va ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy hamda respublika sport musobaqalarida ishtirok etish uchun olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha sinfdan tashqari sport to‘garaklari hamda seksiyalari mashg‘ulotlarini tashkil etish (haftasiga kamida 6 soatdan);

Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo trener-o‘qituvchi va jismoniy tarbiya o‘qituvchisining bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog‘liq. Zero, trener-o‘qituvchi va jismoniy tarbiya o‘qituvchisi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog‘lik vijdon, aql va pedagogik mahorat bilan bajarilishi jamiyat kelajagini ta‘minlovchi muhim omildir.

"Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida" (yangi tahrirda) gi Qonunning 29-moddasi “Ta‘lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish” ga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagilar belgilab berilgan:

“Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asosiy ta’lim dasturlari doirasida davlat ta’lim standartlari bilan belgilangan hajmlarda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha majburiy mashg‘ulotlarni, shuningdek qo‘shimcha ta’lim dasturlari doirasida qo‘shimcha (fakultativ) jismoniy mashqlar va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

- ta’lim oluvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan yoshlarning jismoniy tarbiya-sport tayyorgarligi bo‘yicha tadbirlar majmuini o‘tkazish uchun sport jihozlari va anjomlari bilan ta’minlash;

- ta’lim oluvchilarda individual qobiliyatlari va sog‘lig‘i holatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sport ko‘nikmalarini shakllantirish;

- o‘quv mashg‘ulotlari paytida jismoniy tarbiya tadbirlarini amalga oshirish;

- ta’lim oluvchilarning jismoniy tarbiyasi tashkil etilishi ustidan tibbiy nazorat olib borish;

- ota-onalarda yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarda bolalarining sog‘lig‘i va ularning jismoniy tarbiyasiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish;

- bolalar va yoshlarning jismoniy tayyorgarligini hamda jismoniy rivojlanishini har yili monitoring qilish;

- ta’lim oluvchilar ishtirokida sport tadbirlarini, shu jumladan xalq ta’limi tizimining ta’lim muassasalari o‘quvchilari («Umid nihollari»), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari («Barkamol

avlod») hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari («Universiada») ishtirokida uch bosqichli sport musobaqalari tashkil etilishi va o'tkazilishiga ko'maklashish".

Trenerlik faoliyatining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot qilish;

- jismoniy tarbiya va sport vositalari yordamida, aholini sog'lomlashtirish;

- sportchi zahiralari, hamda xalqaro sport maydonlarida O'zbekiston Respublikasi sporti sha'nini munosib himoya qila oladigan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash;

- kelgusida sport mahoratlarini takomillashtirish maqsadida, istiqbolli va iqtidorli bolalar va o'smirlarni saralab olish va sportda bo'ladigan yo'nalishlarini aniklash.

Quyidagilar trenerlik faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- sportchilarni turli sport musobaqalari va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarda qatnashish uchun tayyorlash;

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni, sport bo'yicha tayyorlash va sog'lomlashtirishda, o'quv-mashq mashg'ulotlari jarayoniga ilg'or ilmiy usullarni joriy qilish;

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning bilim, qobiliyat va ko'nikmasi sifatini, jismoniy rivojlanganishi va tayyorgarliklari darajasi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- olib borilayotgan mashg'ulotlarning xavfsizligini ta'minlash va sanitariya normalari, koidalari va gigiena normativlirni talablariga rioya qilish;

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan turli xil doping va taqiklangan vositalarni qo‘llanilishiga yo‘l ko‘ymaslikka ko‘maklashish.

Trener-o‘qituvchining asosiy vazifasi hisoblangan oquv - mashq mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish Davlat talablari (o‘quv reja, dastur, darslik va qo‘llanma) asosida belgilanadi. Buning uchun sport maktablarida faoliyat olib borayotgan har bir trener-o‘qituvchining kompetensiyaga ega bo‘lishi muhimdir.

“Kompetensiya” tushunchasi lotincha competere degan so‘zdan olingan bo‘lib, mos kelmoq ma’nosini beradi.

Kompetensiya - *olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish layoqati.*

Kompetentlilik (lotincha «competens» – «layoqatli», «qobiliyatli») deganda shaxs bilim, ko‘nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqei va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi.

Kompetentlilik - *aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi.* Kompetentlilik tarkibiga mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari ham kiradi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko‘nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi.

Kasbiy kompetensiya – kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim va ko‘nikmaga tayanib muvaffaqiyatli xal eta olishga qaratilgan faoliyat.

Boshqacha qilib aytganda, kompetensiya – zarur (ko‘zlangan) natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

Tushuncha va tasavvurlar shaklidagi insonning bilish faoliyatining tuzilmasidan farqli o‘laroq, kompetensiya faoliyat jarayonida namoyan bo‘ladi va aniqlanadi.

Amalda kompetentlik - bilim mahsuli bo‘lib, amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati.

Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo‘lmaydi va uni baholay olish mumkin emas.

Kompetentlikning asosiy mezoni (kriteriya) turli xolatlarda, shu bilan birga asabiy vaziyatlarda xam, o‘zini tuta bilishning namoyan bo‘lishidir. Uning tasodifiy muvaffaqiyatli qo‘llanilishi hisobga kirmaydi.

Yana bir bor ta’kidlash joizki, “kompetentlik” va “kompetensiya” o‘zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, vaziyatga bog‘liq emas.

Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklar asosida trener-o‘qituvchilarga belgilanayotgan zamonaviy talablar:

- ta’lim va yoshlar to‘g‘risidagi Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ‘ibot qiladigan;

- o‘z sport turini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning sub’ektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan;

- o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan;

- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o‘quvchilar va trener-o‘qituvchilar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta’limiy muhitni shakllantirish yo‘nalishlarida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda trener-o‘qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlari shuningdek qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog‘liq bo‘ladi.

Chunki trener-o‘qituvchi shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning sport faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, trener-o‘qituvchi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

2-mavzu. O‘quv-mashq jarayonining mohiyati va tarkibiy qismlari.

Reja:

2.1. O‘quv-mashq jarayonining mohiyati.

2.2. O‘quv-mashq jarayonining tarkibiy qismlari.

O‘quv – mashq jarayonida Jismoniy tarbiya mohiyati madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish. Inson organizmning jismoniy tayyorgarlik va funksiyalarining garmonik rivojlanishiga, kishining salomatligini mustahkamlashga va uzoq umr ko‘rishiga yordam berish. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid maxsus bilimlar bilan qurollantirish; amaliy va sport xarakteridagi ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish;

2.1. O‘quv-mashq jarayonining mohiyati.

O‘quv – mashq jarayonida Jismoniy tarbiya mohiyati madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish. Inson organizmning jismoniy tayyorgarlik va funksiyalarining garmonik rivojlanishiga, kishining salomatligini mustahkamlashga va uzoq umr ko‘rishiga yordam berish. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid maxsus

bilimlar bilan qurollantirish;amaliy va sport xarakteridagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish;

Sport ta'limi muassasasi trener-o'qituvchilari pedagogik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila olish, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bular trener-o'qituvchining kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

Trener- o'qituvchi kasbiy kompetentlikka quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;

maxsus fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish;

o'z kasbiga qiziqish, pedagogik va axborot kommunikatsiya

texnologiyalaridan samarali foydalanish;

o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish;

o'z ustida mustaqil ishlash, shaxsiy malakasini muntazam oshirib borish;

o'z-o'ziga talabchanlik, mas'uliyatni teran his etish;

pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilar jamoasini faolligini

oshirish, jamoani birlashtirish, yosh sportchilar orasida shaxslararo

munosabatni to'g'ri yo'lga qo'ya olish;

murakkab va muammoli vaziyatlarda yosh sportchini ruhlantirib borishi;

trener-o'qituvchi va o'quvchi orasidagi qaytar aloqani to'g'ri ta'minlay olish;

ta'limning sermahsul, interfaol va innovatsion metod va usullarini bilishi, mashg'ulot jarayonida qo'llay olishi.

Trener- o'qituvchi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvoffaqiyatli tashkil etishi mumkin, degan xulosaga keldik. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, m'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Shu yerda sharq mutafakkiri Abu Nasr Farobiyning: "Agar inson xayrihohlik, go'zallik, oliyjanoblik va ulug'vorlikka boshqa odamlar orqali emas, balki o'zi va o'z ruhi o'rtasidagi mavjud narsa orqali erishgan bo'lsa, ul (odam) xaqiqatdan ham xayrihohli va barkamollikka erishadi. Buni uning o'zidan boshqa hech kim sezmagan taqdirda ham uning ruhi ulug'vor va oliyjanob bo'ladi va o'sha odam bu fazilatlarga erishganidan bag'oyat xursand bo'ladi", degan gaplari juda o'rinlidir.

Trener-o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yo'nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo'lgan, yosh davrlar psixologiyasini yaxshi biladigan, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq eta oladigan, tegishli ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy kasbiy tajribaga ega bo'lgan pedagogik shaxsni ifodalaydi.

2.2. O'quv-mashq jarayonining tarkibiy qismlari.

Trener-o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblangan o'quv – mashq mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, dastur, darslik va o'quv qo'llanma asosida belgilanadi.

«Umumiy o'rta va o'rta maxsus professional ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi (oldingi O'zR Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli qaroridan) ko'chirma:

Umumiy o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning **asosiy maqsadi:**

o'quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog'lom qilib tarbiyalash, inson salomatligi to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya fanidan egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'limi muassasalarida jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning **asosiy vazifalari:**

sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish;

jismoniy mashqlarni ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

sport asbob-anjomlaridan foydalanishning xavfsiz usullarini o'rgatish;

sogʻlom turmush tarzini keng jamoatchilik oʻrtasida targʻib etishda tayanch va jismoniy tarbiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Jismoniy tarbiya fani boʻyicha umumiy oʻrta va oʻrta maxsus professional taʼlim muassasalari bitiruvchilariga qoʻyiladigan malaka talablari:

1. Sogʻlomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qoʻllay olish kompetensiyasi:

B1.Jismoniy mashqlarni bajarishda oʻquv mashgʻuloti uchun qulay sharoitlarni yarata oladi;

jismoniy mashqlar yordamida organizmning barcha

guruhlarining funktsiya tizimlarini toʻgʻri va oʻz vaqtida rivojlantira oladi;

jismoniy mashqlar yordamida asab tizimini mustahkamlaydi,

modda almashuv jarayonini faollashtira oladi;

gimnastika anjomlaridan toʻgʻri va xavfsiz foydalana oladi;

yengil atletikaning inson salomatligida tutgan oʻrni va

taʼsirini biladi;

shaxmat, shashka, basketbol, voleybol, qoʻl toʻpi, futbol,

suzish, badminton, stol tennisi va boshqa sport oʻyinlarining

himoya va hujum usullarini biladi;

kurash turlari, elementlari hamda usullarini bajara oladi.

2. Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda toʻgʻri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:

B1.Buyum va buyumsiz bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlarning boʻgʻinlar va mushak guruhlariga ijobiy taʼsiri va uni

ketma-ketligi, osilish, tirmashish, muvozanat saqlash, tayanib va tayanmay sakrash, tortilish, akrobatika elementlari va ritmik gimnastika qoidalariga rioya qiladi;

fazoviy harakatlar va uning bajarilish ketma-ketligiga amal qiladi;

sport turlarining kelib chiqishi va uning rivojlanish tarixini biladi;

sport turlari bo'yicha bajariladigan mashqlarining inson salomatligini saqlashdagi ahamiyati haqidagi ma'lumotni biladi; respublika miqyosida o'tkazilayotgan uch bosqichli sport musobaqa turlarini biladi.

3. Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:

B1. Sport o'yinlari, jihoz va anjomlarning nomlari, tuzilishi va o'lchamlari haqida ma'lumotlarni biladi;

sport o'yinlariga oid jihoz va anjomlar, basketbol shchiti, halqa, to'p, futbol darvozasi, to'r, to'p, bayroqlar, voleybol ustuni, hakamlar o'tirish uchun maxsus joy, to'ldirma to'p, turli to'siqlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga amal qila oladi;

kurash turlari bo'yicha anjom, jihozlarning nomlari, tuzilishi, o'lchamlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi va foydalana oladi.

respublikamizda joriy etilgan uch bosqichli sport musobaqalari haqida tushunchaga ega bo'la oladi;

kurashda xavfsizlik texnikasiga rioya qila oladi;

shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsata oladi.

Jismoniy tarbiya va sport o‘quv – mashq mashg‘ulotlari ta’lim-tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

1. Mashg‘ulot qat’iy jadval bo‘yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishi kerak.
2. Mashg‘ulot trener- o‘qituvchi rahbarligida butun guruh bilan va alohida o‘quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.
3. Mashg‘ulot o‘quv dasturi mazmuniga qarab turli metod va vositalarda olib boriladi va ta’lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim va ko‘nikma beradi va navbatdagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Mashg‘ulot – ta’limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo‘lishi, bilimlar mustahkam o‘zlashtirilishi va amaliy ko‘nikmalar shakllanishi o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holda tashkil etilishi mashg‘ulot oldiga qator didaktik talablarni qo‘yadi.

Jumladan:

1. Har bir mashg‘ulot aniq maqsadni ko‘zlagan holda puxta rejalashtirilmog‘i lozim. Bu jarayonda trener mashg‘ulotning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadini belgilaydi.
2. Mashg‘ulot bosqichlarini to‘g‘ri taqsimlay olish lozim. Ya’ni mashg‘ulotni qanday boshlash, uni o‘tkazish va qanday tamomlash oldindan hal qilib olinishi kerak.
2. Mashg‘ulot o‘tiladigan joy sanitar-gigienik talablarga javob berishi kerak.

3. Har bir o‘quvchi texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilishi shart.

4. Har bir mashg‘ulot mavzuga mos ravishda o‘quvchilar soni va yoshiga mos ravishda kerakli vositalar bilan jihozlanmog‘i lozim.

5. Har bir mashg‘ulot aniq g‘oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo‘lishi lozim. Trener esa ulardan tarbiyaviy maqsadda tarbiya metodlaridan samarali foydalanmog‘i lozim.

6. Har bir mashg‘ulot xarakteriga mos usul, shakl va vositalardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.

7. Mashg‘ulot uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

8. Dars jarayonida trener – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro faol munosabatda bo‘lishi lozim.

9. Mashg‘ulotlar butun guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e‘tiborga olingan holda olib borilish kerak.

10. Mashg‘ulotning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma’naviy merosidan va ma’naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

3-mavzu. O‘quv-mashq mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodlari, tasnifi va qo‘llanilishi.

Reja:

3.1. O‘quv-mashq mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodlari

3.2. O‘quv-mashq mashg‘ulotlarini tasnifi va qo‘llanilishi.

O‘quv-mashq mashg‘ulotlarini metodlari: tayyorlovchi — asosan xarakterlar texnikasini o‘zlashtirishga qaratilgan; rivojlantiruvchi - jismoniy va psixologik qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan

aralash (kombinatsiyalashtirilgan) bir vaqtda ham jismoniy sifatlarni va harakatlar texnikasini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan shakllar. Oʻquv-mashq mashgʻulotlarini tasnifi: gimnastika, sport, oʻyinlar va turizm; jismoniy mashqlar asosan insonning jismoniy fazilatlariga qoʻyadigan talablar boʻyicha tasniflash (tezlik - kuchli mashqlar turlari; siklik harakatlarda chidamlilikning ustun namoyon boʻlishini talab qiladigan mashqlar turlari); xarakter; qatʼiy choralar (vaqt, masofa, vazn va boshqalar) sharoitida muvofiqlashtirish va boshqa qobiliyatlarning namoyon boʻlishini talab qiladigan mashqlar turlari.

3.1. Oʻquv-mashq mashgʻulotlarini oʻtkazish metodlari

Oʻquv-mashq mashgʻulotlarini metodlari: tayyorlovchi — asosan xarakterlar texnikasini oʻzlashtirishga qaratilgan; rivojlantiruvchi - jismoniy va psixologik qobiliyatlarni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan aralash (kombinatsiyalashtirilgan) bir vaqtda ham jismoniy sifatlarni va harakatlar texnikasini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan shakllar. Oʻquv-mashq mashgʻulotlarini tasnifi: gimnastika, sport, oʻyinlar va turizm; jismoniy mashqlar asosan insonning jismoniy fazilatlariga qoʻyadigan talablar boʻyicha tasniflash (tezlik - kuchli mashqlar turlari; siklik harakatlarda chidamlilikning ustun namoyon boʻlishini talab qiladigan mashqlar turlari); xarakter; qatʼiy choralar (vaqt, masofa, vazn va boshqalar) sharoitida muvofiqlashtirish va boshqa qobiliyatlarning namoyon boʻlishini talab qiladigan mashqlar turlari.

Jismoniy tarbiya metodologiyasi tamoyillari - bu mashgʻulot jarayonini tarkibi, mazmuni, usullari va tashkil etishga qoʻyiladigan asosiy talablarni belgilaydigan boshlagʻich, ilmiy va

amaliy qoidalarni amalga oshirilishi uning zarur samaradorligini ta'minlaydi.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish tamoyili:

sportchining jismoniy sifat koordinatalarini muvofiqlashtirish va jamlash (konditsiya) qilish va rivojlantirish; jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida trenerning pedagogik, metodik yondoshuvlarini sportchi yoshiga mos bo'lishi; pedagogik, metodik ta'sirlarning optimalligi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda metodik yondoshuvlarni tabaqalashganligi; jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini diagnostika qilish.

Ratsional ovqatlanish tamoyili: sportchi ratsional ovqatlanishida:

oziq- ovqat kaloriyasini sog'lomlashtirish va o'quv – mashq jarayonida energiya sarfi hamda tana vazniga muvofiqligini saqlashi; oqsil, yog', uglevod, vitamin, mineral va dietaning boshqa tarkibiy jihatlarini muvozanati nisbatiga rioya qilish; sportchi ratsional ovqatlanishda: muntazamlik, parchalanish, kun davomida va har bir taomning energiya sarfini maqbul jihatlariga rioya qilishi; sportchi organizmning fiziologik funksiyalarda ovqatlanish va jismoniy faollik va yoshga bog'liq o'zgarishlarga bog'liq ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniqlashning zarur profilaktik yo'nalishi; sportchini individual ovqatlanishni ta'minlashda: sport turlari bo'yicha sportchining ovqatlanish ratsionida me'yor va kaloriya xususiyatlarni to'liq bilgan xolda ta'minlanishi).

Yosh sportchilarni tayyorlash va boshqarish tamoyillari:

yuqori sport mahoratiga nisbatan maqsadli yo'naltirish (bu

nafaqat yosh sportchi rivojlanishining yosh xususiyatlarini, uning tayyorgarligiga turli bosqichlarda kerak bo‘lgan talablarni ham hisobga oladi. sportchi faoliyatida mahorat samaradorligini oshirishda tegishli bosqichga xos mezonlar bo‘yicha uzoq muddatli treninglar); yosh sportchilarni tanlagan sport turlari bo‘yicha talab va xususiyatlari bo‘yicha jismoniy sifatlarni rivojlantirishda foydalanish samaradorligi (bu o‘quv – mashq va mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, trenerni birinchi navbatda yosh sportchining o‘zini qanday tutishi, qobiliyatlariga e’tibor qaratishga yo‘naltirilishi); yosh sportchilarning jismoniy sifatlari rivojlanishining mutanosibligi (bu uzoq muddatli mashg‘ulotlarning har bir bosqichida yosh sportchilarda jismoniy sifatlarning rivojlanish darajalarining optimal nisbatini ta’minlash talabini bildiradi); uzoq muddatli tayyorgarlikning turli bosqichlarida yetakchi omillar: (muayyan bosqichlarda ularning tuzilishi, mazmun – mohiyati, davlat standartlari); yosh sportchini professional bo‘lib shakllanishida istiqbolidagi yetakchilik bo‘ladigan bosqichma - bosqich texnik ko‘nikmalar (dastlabki ixtisoslashuv va kasbiy, nazariy, metodik tayyorgarlik bosqichlarida sportchilardan musobaqalarda talab qilinadigan harakatlar rejimda ko‘nikmalarning biodinamik tuzilishini to‘liq egallashlari.).

3.2. O‘quv- mashq mashg‘ulotlarini tasnifi va qo‘llanilishi.

Sport mashg‘uloti vositalarini tarkiblashtirish va o‘rganilayotgan tushuncha va atamalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anqlashtirishni usul va vositalari bo‘yicha shakli, turi, ahamiyati va xususiyatlarini

tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Sport mashg'uloti vositalarini komponentlari:

Sport mashg'uloti - bu tanlangan sport turida yuqori sport natijalariga erishishga yo'naltirilgan pedagogik, psixologik va ixtisoslashtirilgan jismoniy tarbiyani takomillashuv jarayonidir.

Sport mashg'ulotlarining **maqsadi**: yosh sportchi uchun mumkin bo'lgan eng yukori tayyorgarlik darajasiga erishish hamda musobaqa faoliyatida yuksak natijalarni namoyish etishdan iboratdir.

Sport mashg'uloti vositalari — bu tanlangan sport turining xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllanadigan har - hil jismoniy mashqlar bo'lib, ular to'rt asosiy gurux: umumtayyorlovchi, yordamchi, maxsus tayyorlovchi va musobaqa mashqlari bilan sportchining jismoniy sifat mahorati takomillashtiriladi.

Umumtayyorlovchi, yordamchi, maxsus tayyorlovchi va musobaqa mashk,-

lari yordamida sportchilarning sport mahorati darajasini takomillashtiri mumkin.

Jismoniy mashqlar: jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanib, ular yordamida sportchi organizmiga aniq, maqsadli ta'sir ko'rsatuvchi, ular yordamida o'quv - mashqlarni samarali tashkil etish va o'tkazish jarayonida sog'lomlashtiruvchi, ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan iborat.

Tanlangan sport turini hisobga olgan holda shakllanadigan turli jismoniy mashqlar: umumtayyorlovchi, yordamchi, maxsus

tayyorlovchi va musobaqa mashqlari bilan sportchining jismoniy sifat va mahoratini takomillashtiruvchidir.

Sport mashg'ulotlarning yordamchi vositalari: tabiiy muhit, tibbiy – biologik, psixologik va moddiy texnik.

Sport amaliyotida umumtayyorlovchi mashqlar: sportchini nazariy, amaliy mahoratini tiklovchi, mustahkamlovchi, jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi, harakat yuklamalarida sportchi organizmida dam olishni tezlashtiruvchi va b.

Sport mashg'ulotlarining maqsad va vazifalari: Sport mashg'uloti - tanlangan sport turida yuqori natijalariga erishishga yo'naltirilgan pedagogik, psixologik ixtisoslashtirilgan sportchi faoliyatining takomillashuv jarayonidir.

Sport mashg'ulotlarining maqsadi: sportchi uchun mumkin bo'lgan eng yukori tayyorgarlik darajasiga erishish xamda musobaka jarayonida yuksak natijalarni namoyish etishdan iboratdir.

Mashg'ulot jarayonida quyidagi asosiy vazifalar xal etiladi:

- tanlangan sport turining texnika va taktikasi mukammal o'zlashtiriladi;
- jismoniy imkoniyat va sifatlar rivojining zarur darajasi o'zlashtiriladi;
- sportchi organizmining funksional imkoniyatlari ortadi va sog'ligi mustahkamlanadi;
- mashg'ulot va musobaqalar jarayonida sportchi harakatlarining yuqori darajada jamlanishi va safarbar etilishini

ta'minlovchi psixologik, axloqiy, irodaviy sifatlari maqsadli ravishda shakllantirib boriladi;

- sportchi tayyorgarligining erishilgan darajasini yuzaga chiqarish sifatini majmuaviy tarzda takomillashtirish va uni musobaka faoliyatida namoyish etish amalga oshiriladi;

- mashq va musobaqa faoliyatini muvaffaqiyatli olib borish uchun zarur nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikma, malaka egallanadi.

Mashg'ulot vazifalarining har biri uzviy, izchil tarzda sportchilarga qo'yiladigan va tobora ortib boradigan talablar sharoitida hal etiladi. Mazkur vazifalarni bajarilishi natijasida sportchi tayyorgarligining yuqori natija darajasi ta'minlanadi.

Sport mashg'ulotlaridagi ayrim xususiyatlar :

Tanlangan sport turi bo'yicha sportchining eng yuqori natijaga erishishiga yo'naltirilganligi;

Mashg'ulotlarning qa'tiy chegaralangan muddati va uzviy muntazamligi;

Ma'lum qonuniyatlarga muvofiq strategik (uzoq muddatli) rejalashtirish va yuklamalarining izchil ravishda oshirib borilishi; Sportchining yetarlicha mustaqilligi hamda mashg'ulot jarayoniga kreativ yondashuvi sharoitda trenerning rahbarlik mahorati; Sportchining butun hayoti davomida mashg'ulotlarning faol ta'sir ko'rsatishi (kun tartibi; bilim, ko'nikma va malakasini takomillashtirish, qo'shimcha kasb tanlanishi va b.).

Umumrivojlantiruvchi mashqlar : sport gimnastikasida (qo'l, oyoqlarning turli harakatlari, predmet bilan, predmetsiz, sherik

bilan va sheriksiz, turgan joyda va harakatda), yengil atletikadan, sport o‘yinlaridan, akrobatikadan olingan mashqlar kirishi mumkin. Bular sportchiga turli yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatuvchi, jismoniy sifatlar majmuasining rivojiga yordam beruvchi, bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantiruvchi harakatlardir.

Umumrivojlantiruvchi mashqlarda sportchi tanlagan sport turiga xos bo‘lgan, lekin undan organizm faoliyati rejimi, harakatlarni bajarish yo‘llari hamda sharoitlari bilan farq qiluvchi mashqlar.

Masalan: suzishda — musobaqa usuli va musobaqa rejimini qo‘llamagan holda suzish, sakrovchida har – hil yo‘llar bilan bajariladigan sakrashlar. Boshqa sport turlariga xos mashqlar.

Umumtayyorlovchi mashqlar doirasi ancha keng va xilma-xil.

Ularni tanlashda ushbu talablarga rioya qilish kerak:

mashklar sportchining xar tomonlama rivojlanishini ta’minlashi; shu bilan birga, ular sport ixtisosligi talablarini aks ettirishi lozim.

Shu bilan bog‘lik xolda umumtayyorlovchi mashqlar sportchining maxsus faoliyatlarini shakllantirishga bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan sifat hamda ko‘nikmalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir kilishi kerak. Boshkacha aytganda, ular yordamida u yoki bu sport faoliyatini takomillashtirish uchun poydevor yaratilishi zarur.

Sport amaliyotida umumtayyorlovchi mashklar:

- sportchining kasbiy nukta nazaridan takomillashuvida yordamchi ahamiyatga ega bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, mustaxkamlash yoki tiklash uchun;

- sportchining ishchanlik qobiliyati umumiy darajasini ko‘tarish yoki bir me’yorda saqlab turish uchun;
- jismoniy sifatlarni ixtisoslashtirib rivojlantirish maqsadida funksional sharoit yaratish uchun;
- faol dam olish, jismoniy harakat yuklamalarida sportchining organizmidagi tiklanish jarayonlarini tezlashtirish, mashg‘ulotning bir me’yordaligini bartaraf etish uchun qo‘llaniladi.

Umumtayyorlovchi mashqlar sportchini tayyorlash vositasi sifatida:

Bu yordamchi vositalari kam bo‘lgan, mashg‘ulotlarini ma’lum ma’noda bir me’yorli (gimnastika, og‘ir atletika, yugurish), ya’ni musobaqa mashqlarida asosiy mashg‘ulot vositalari hisoblangan sport turlarida alohida ahamiyatga ega.

Yordamchi mashqlar: sportchining tanlagan yoki muayyan boshqa sport faoliyatini keyinchalik takomillashishi uchun maxsus sharoit yaratuvchi harakat faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bunday mashklar guruhiga sportchining trenajer va boshqa sport jihozlarda ishlash vaktida tezlik, kuch sifatlarining rivojlanishiga yordam beradigan vositalar kiradi.

Boshqa sport turlaridan olingan hamda sportchining aerob va anaerob imkoniyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan vositalardir (kross, yugurish, eshkak eshish va b.).

Maxsus tayyorlovchi mashqlar: malakali sportchilarning mashg‘ulotlari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Bular harakatlarning muvofiqlash tuzilishi, makoniy, makon — vakt, ritm hamda energetik tavsiflarga, asab - mushak zo‘riqlari, jismoniy

qobiliyatlarning ko‘prok namoyon bo‘lishi jixatlaridan musobaka mashqlariga o‘xshash bo‘lgan harakatlardir. Masalan, yuguruvchining maxsus tayyorlovchi mashqlari qatoriga tanlangan masofaning kesmalari bo‘yicha yugurish; gimnastikachilarda — musobaqa kombinatsiyalarining element va bog‘lamlarini bajarish; og‘ir atletikachilarda shtanga og‘irligini tortish yoki u bilan o‘zgarib – turishlarga o‘xshash mashqlar; futbolchilarda to‘p bilan va to‘psiz alohida, guruh hamda jamoali harakatlar va kombinatsiyalar kiradi. Maxsus tayyorlovchi mashqlarda sportchi tanlagan sport turining xususiyatlari bilan belgilanadi, bunday mashqlar doirasi, odatda, nisbatan cheklangan bo‘ladi. Shuni nazarda tutish kerakki, maxsus tayyorlov mashqlari tanlangan sport turi bilan bir xil emas - sababi ularni qo‘llash samarasizdir. Ularni tanlashdan asosiy maqsad - sportchi uchun zarur bo‘lgan maxsus jismoniy qobiliyatlar va harakatlar texnikasiga maqsadli va tabaqalashgan xolda ta’sir ko‘rsatishni ta’minlashi zarur.

Maxsus tayyorlovchi mashqlarni vazifasiga qarab quyidagi turlarga ajratadilar: tayyorlovchi — asosan xarakatlar texnikasini o‘zlashtirishga qaratilgan; rivojlantiruvchi - ko‘proq jismoniy va psixologik qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan; aralash (kombinatsiyalashtirilgan) — ayni bir vaqtda ham sifatlarni, ham harakatlar texnikasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar. Bunday tasniflar, albatta, ma’lum darajada shartlidir, chunki xarakat faoliyatining shakli va mazmuni yagona hamda xozirlovchi mashqlar shaklan tanlangan sport turining texnikasiga yaqin turadi.

Rivojlantiruvchi mashqlar odatda, ancha jiddiy mashg'ulot yuklamalari bilan bog'liqdir.

Musobaqa va maxsus tayyorlov mashqlari sportchining maxsus tayyorgarligi vositalari sanaladi.

5 - mavzu. Trenerning pedagogik mahorati va uning tarkibiy qismlari.

Reja:

5.1. Trenerning pedagogik mahorati.

5.2. Trenerning mahoratining tarkibiy qismlari.

Kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui; san'at darajasidagi mahorat; pedagogik kompetentlik, mohirlik, bilimdonlik; yangiliklarni o'rganishi va o'rgatishi; sport ta'limi jarayonini tashkil yeta olish; shug'ullanuvchilar tanlagan sport sohalarini o'rganishda yoshi, fiziologik imkoniyatiga mos ichki his - tuyg'u, qiziqish ko'nikmasini shakllantirish; do'stona va samimiy munosabatda bo'lishi. Ishonchga kirish, ishontira olish; mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini hosil qilish; nutq mahorati; qalbgga yo'l topa olish; muloqotga kirishuvchanlikda kommunikativlik kabilar. Trenerning avtoritar, liberal, demokratik yondoshuvlari.

5.1. Trenerning pedagogik mahorati.

Kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui; san'at darajasidagi mahorat; pedagogik kompetentlik, mohirlik, bilimdonlik; yangiliklarni o'rganishi va o'rgatishi; sport ta'limi jarayonini tashkil yeta olish; shug'ullanuvchilar tanlagan sport sohalarini o'rganishda yoshi, fiziologik imkoniyatiga mos ichki his - tuyg'u, qiziqish ko'nikmasini shakllantirish; do'stona va samimiy munosabatda bo'lishi.

Mahorat – arabcha soʻz boʻlib, mohirlik, ustalik, epchillik, katta mahoratga ega va usta degan maʼnoni anglatadi.

Mahorat – shaxsning tajriba orqali orttirilgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan koʻnikma va ijodkorlik asosida hosil boʻlgan kasbiy koʻnikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, koʻnikma va malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qoʻllash.

Trener- oʻqituvchining mahorati – bu bolalar bilan ishlashni seva oladigan, har bir pedagog uchun zarur boʻlgan bilim berish va tarbiyalash sanʼatining takomillashgan va yuqori choʻqqisi. Oʻz ishining ustasi boʻlgan pedagog – bu yuqori madaniyatli mutaxassis, oʻz oʻquv fanini chuqur biladigan, fan yangiliklari bilan tanishadigan, bolalar psixologiyasini amaliy biladigan, taʼlim-tarbiya metodikasini yuqori darajada egallab olgan shaxs.

Trener-oʻqituvchi esa pedagogik mahorat sirlarini oʻrganishi va yuksak natijalarga erishishi uchun, avvalo oʻquvchi yoshlarni oʻqitish, maʼlumotli qilish va tarbiyalashning eng qulay, oson, koʻp natija beradigan yoʻllarini izlab topish va qoʻllashga harakat qilmogʻi, taʼlim va tarbiyasining, shakl, usul va vositalaridan unumli foydalanish kerak. Albatta, oʻquv-trenirovka ishlarining tashkil qilishning zamonaviy shakl, usul va vositalarini qoʻllash orqali trener-oʻqituvchi oʻquvchilarni oʻquv ishlarining turli jarayonlariga jalb qiladi. Natijada oʻquvchilarda maʼlum sportga oid bilimlar tizimi vujudga keladi va amaliy koʻnikma hamda malakalar bilan qurollanish imkoniyatiga ega boʻladi. Ammo baʼzan eng koʻp natija beradigan usul va vosita ham koʻzlangan natija

beravermaydi. Biz ba'zan ayrim trener-o'qituvchilardan men barcha metodik ko'rsatmalarga asoslanganda, o'quvchilar meni tushunmayaptilar, mashg'ulotda meni tinglamay qo'ydilar, degan e'tirozlarni eshitib qolamiz. Buning sababi shundan iboratki, ba'zan o'qitishning ma'lum faol shakllari, usul va vositalari ham o'quvchilarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashga ojizlik qiladi. Bunday sharoitlarda trener-o'qituvchi shaxsi, uning individualligi o'quvchilar bilan munosabati ma'lum darajada muhim ahamiyat kashf etadi. Shuning uchun, avvalo, trener-o'qituvchi pedagogik mahoratning ustasi bo'lishi uchun o'zining shaxsiy fazilatlarini tarbiyalab takomillashtirib borishi, davr, vaziyat, imkoniyatga qarab ish tutishi lozim. Shuning uchun trener-o'qituvchiining kasbiy mahorat, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarni ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi. Trener-o'qituvchi faoliyat mahoratini qanday fazilatlar belgilaydi?

Bolalarni seva olish, ularga o'z ota-onalaridek mehribonlik ko'rsata bilish mohir trener-o'qituvchining muhim shaxsiy fazilatlaridan biridir. Trener-o'qituvchi har doim, hamma vaqt o'quvchilarga mehribonlik ko'rsata olishi lozim. O'z o'quvchisi to'g'risida shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaslik, ular haqida salbiy yoki ijobiy fikrga kelmaslik kerak. O'quvchilar orasida uning "sevimli" yoki "yomon" ko'radigan tarbiyalanuvchilarni bo'lishi o'quvchida trener-o'qituvchiga bo'lgan hurmatni so'ndiradi. Har qanday bo'sh va past o'zlashtiradigan, "tarbiyasi qiyin" o'quvchi bilan ishlaganda trener-o'qituvchining vazifasi shundan iboratki, o'quvchidagi ana shu bilinar bilinmas lekin eng muhim ijobiy fazilatni topa olish va shu fazilatga tayanib o'quvchi

mulkidagi, o‘tmishidagi salbiy xususiyatlarni tugatishga intilmog‘i lozim. Trener-o‘qituvchi shaxsiy fazilatlari tizimida pedagoglik faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj nomli muhim kasbiy yo‘nalish mavjudki, u pedagogik mahoratni egallash uchun katta rol’ o‘ynaydi. Bunday professional xususiyatlarni olimlarimiz S.Baranov va boshqalar shunday izohlaydilar: Pedagogik faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj professional mahoratdagi trener-o‘qituvchi shaxsiy fazilatlarini belgilovchi qimmatli bahodir, u o‘zida: "...bolalarga qiziqish va muhabbatni; pedagogni ishga havasni; psixologik-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanligini mujassamlashtiradi”.

Trener-o‘qituvchining o‘quvchilarga nisbatan mehribonligi, hayrixohligi bolalarni sevishi insoniy talabchanlik asosida ko‘rilmog‘i lozim, insonparvarlikka asoslangan talabchanlik o‘quvchilarni intizomga chaqiradi, o‘z hulq-atvori to‘g‘risida o‘ylashni, o‘ziga boshqalar ko‘zi bilan. qarashni, salbiy xususiyatlarini qayta tarbiyalashni, ijobiy fazilatlarini takomillashtirishni yo‘lga qo‘yishga da’vat etish muddaosiga erishadi. Buning uchun trener-o‘qituvchi talabning me’yorini bilishi lozim. Talab istiqbolli bo‘lib, bolaning kelajak hayoti, sport faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan, bolalarni sportga qiziqishlarini takomillashtiruvchi yo‘naltirilgan bo‘lsagina, maqsadga muvofiq bo‘ladi. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida chop etilgan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" qo‘llanmasida talablarning bir necha shakllari ko‘rsatib o‘tilgan, jumladan, iltimos shaklidagi talab, ishonch bilan talab qilish, talab-ma’qullash, talab-maslahat, o‘yin shaklidagi talab, talab-sha’ma, shartli-talab, qoralovchi talab, ishonchsizlik asosidagi talab, talab qo‘rqitish va boshqalar.

Trener-o'qituvchi shaxsiy sifatining yana bir ko'rinishi "uning shaxsiy namunasidir. O'tmish mutafakkirlari "mehnat shaxsni shakllantiradi" deb da'vat etgan edilar. Darhaqiqat, trener-o'qituvchining shaxsiy namunasi o'quvchi uchun hayot darsligi vazifasini o'taydi. Shaxsiy namuna o'z ishiga bo'lgan munosabatda, o'quvchilarni, tushunish, hurmat qilish, talabning me'yorda bo'lishida namoyon bo'ladi. Trener-o'qituvchining shaxsiy namunasi har qanday pedagogik jamoadagi munosabati bilan, belgilanadi. Shuning uchun trener-o'qituvchi sinchkov, ziyrak, chidamli, saʼr-toqatli, o'zini tuta biladigan, hayrixoh, muntazam o'z hissiyotini, faoliyati, hulq-atvorini nazorat qila oladigan kishi bo'lishi lozim. Shundagina ish ham, tarbiya ham unumli bo'ladi. O'quvchilar o'zlarining qilgan ishlari, hulq atvorlariga qo'yiladigan bahoni ziyraklik bilan kuzatuvchan bo'ladilar. Ayniqsa, o'smir yoshidagi bolalar trener-o'qituvchining qay holatlarida haq, qay vaziyatlarda u nohaq ekanligini aniq baholaydigan bo'ladilar. Munosabatda garmjo'shlik, hulq-atvorda vazminlik og'ir-bosiqlik, talabda ob'ektivlik hozirgi davr trener-o'qituvchisining muhim shaxsiy sifatlaridan biridir.

Trener-o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini uning kasbiy xususiyatlari to'ldirsa, u kasbiy mahorat pillapoyalari sari yana ilgari odimlaydi. Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, trener-o'qituvchi kasbiy mahoratini, uning bilimdonligi pedagogik-psixologik, metodik tayyorgarligi, erudutsiyasi, ijodkorligi, o'quvchi-yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topishi kabi malakalar tashkil etadi. Pedagogik mahoratning bu malakalari insonparvarlik, kasbiy bilimlar, pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat

mazmunida tarkib topib boradi. Trener-o‘qituvchi pedagogik mahoratining bunday tarkibiy qismlari trener-o‘qituvchining g‘oyaviy-siyosiy tayyorgarligi, o‘quv predmetining ilmiy-nazariy va amaliy asoslari bilan qurollanish, muntazam mustaqil bilim olishga intilishi kabi xususiyatlar bilan to‘ldiriladi.

Komponentlar o‘zaro pedagogik mahoratning mazmunini tashkil etadi. Izohlab o‘tilgan trener-o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari, uzviy bog‘liqlikda shakllanib takomillashib boradi. Ular pedagogik faoliyat zaminida mustahkamlanar ekan o‘quvchilar bilan bo‘lgan munosabatlarda, ularning qalbini bilishga intilishda, o‘z shaxsiy va kasbiy faoliyatini muntazam nazorat va tahlil qilishda namoyon bo‘ladi. Mabodo trener-o‘qituvchi pedagogik kasbni faqat o‘quvchilarga sport turi bo‘yicha bilim berish, ularni sportchi qilib tarbiyalashdan iborat deb bilsa, katta xatolikka yo‘l qo‘yadi. Shuning uchun u vaqti-vaqti bilan o‘z ishlarini, muomalasini, munosabatlarini, xoh u ijobiy bo‘lsin, xoh salbiy tahlil qilib borishga odatlanish kerak. Bulardan tashqari, kasbiy mahorat tizimida yana shunday masalalar, borki ularni bilmaslik, ularga e‘tiborni qaratmaslik maktabda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishni qiyinlashtiradi, oqibat-natijada pedagogik mahoratni shakllantirish va uni takomillashtirish ishlariga sharoit yaratilmaydi.

Pedagogik ensiklopediyada pedagogik mahoratga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Pedagogik mahorat-o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo‘naltirilganligi;

- kasbiy bilimlar, ya’ni mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo‘lish;

- pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o‘qib olish);

- pedagogik texnikani egallash, ya’ni o‘z-o‘zini boshqara olish, o‘zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Pedagogik qobiliyat turlari

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, trener-o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlarini qo‘yidagicha klassifikatsiya qilish mumkin :

1. Didaktik qobiliyat- bu oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda trener-o‘qituvchining o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi va namoyish qilishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘ota olishi ko‘zda tutiladi. Trener-o‘qituvchi zarurat tug‘ilgan hollarda o‘quv materialini o‘zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat- barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo‘lgan trener-

o'qituvchi o'z sport turi bo'yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq biladi, o'z sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi. O'quvchilarda ma'lum sport turi bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantirish jarayonida ma'lumotlarni boshqa fanlar (fizika, anatomiya, fiziologiya, geometriya va h.k) bilan bog'lay oladi.

3. Perseptiv qobiliyat- qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday trener-o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchi ruhiyatdagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat- ixcham, ma'noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq. Shuningdek, trener-o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi. Qobiliyatli trener-o'qituvchining nutqi mashg'ulotda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. Trener-o'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga karatilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati- o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni

xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo‘lsa, ikkinchidan, o‘z faoliyatini to‘g‘ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Hurmatga ega bo‘lishlik qobiliyati- o‘zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql- farosatli, mustahkam irodasi bilan obro‘ orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi- avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Hurmatga ega bo‘lish trener-o‘qituvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilliligi, chidamliligi, qat’iyligi, talabchanligi va h.k) shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish ma’suliyatini his etishga, bu ishonchni o‘quvchilarga ham yetkaza olishiga bog‘liq bo‘ladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlar- muomala va muloqot o‘rnata olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, o‘quvchilarga to‘g‘ri yondoshish yo‘lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati- insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o‘z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko‘rishda, o‘quvchining kelgusida qanday odam bo‘lishi hakidagi tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarning taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog‘liq bo‘ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati- bir necha ob’ektlarga bir davrning o‘zida o‘z munosabatini bildirish. Trener-o‘qituvchi uchun

diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi, uning kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali trener-o‘qituvchi o‘z fikrini (yoki o‘quvchi fikrini) bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o‘quvchilarni o‘z diqqat-e’tiborida tutadi, toliqish, e’tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e’tibordan qochirmaydi, nihoyat o‘z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish- turishni) ham kuzatib boradi.

10. Konstruktiv qobiliyat- o‘quv- tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o‘quvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o‘quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, o‘quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi. Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o‘rganish shaxsning aql-idroki, his-tuyg‘usi va iroda sifatlarining namoyon bo‘lishidan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogik qobiliyatlar xarakter xislatlari bilan bog‘langan. Uyushqoqlik, qat’iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasini orttirishga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko‘ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyati natijalarini pasaytiradi.

5.2. Trenerning mahoratining tarkibiy qismlari.

Pedagogik takt – bu trener - o‘qituvchining o‘quvchiga ta’sir etishi pedagogik jihatdan muvofiqlik o‘lchovi, eng samarali muloqot uslub o‘rnatishiga bog‘liqdir.

Taktli (odobli) bo‘lish-har bir inson, ayniqsa kamol topayotgan yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar uchun muhim ahloqiy talabdir. Pedagogik takt trener-o‘qituvchining professional sifati, pedagogik mahoratining muhim qismidir. Pedagogik taktning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat trener-o‘qituvchi shaxsi xususiyatini

(xushmuomalalik, o'quvchini sevish, hurmat qilish) anglash, balki o'quvchi ko'ngliga to'g'ri yo'l topa olishini ham bildiradi.

Pedagogik texnika – o'qituvchining nafaqat ta'lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir.

Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo trener-o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimni tushuntira olishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir. Trener-o'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida trener-o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, ta'lim oluvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlarini va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim–tarbiya jarayonida o'z–o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi (mimika, pantomimika);

ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;

mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;

nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;

ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;

ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;

o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

Trener-o'qituvchining tarbiyalanuvchi ob'ektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, trener-o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir mashg'ulotda yangi mavzuni o'tilgan mavzular

bilan bog‘lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida o‘quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko‘radi, guruh jamoasidagi o‘ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir ta‘lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini e‘tiborga olib pedagogik faoliyat ko‘rsatishga majbur. Bunday ulkan mas‘uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o‘qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo‘lish talab etiladi.

Lekin har bir trener-o‘qituvchi o‘ziga xos individual-psixologik xislatlarga ega bo‘ladilar. Ulardan ba‘zilari harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba‘zilari qattiqo‘lroq, boshqalari yumshoqroq bo‘ladilar. Bu xususiyatlarning hammasi juda yaxshi xususiyatlar bo‘lib, ulardan foydalanishning ahamiyati katta. Bundan trener-o‘qituvchiga his-tuyg‘ular, emotsiyalar yot narsa bo‘lishi kerak, degan ma‘no kelib chiqmaydi, aksincha u quvonishni ham, g‘azablanishi ham, qayg‘uga tushishi ham, xafa bo‘lishi ham mumkin va lozim. Bu yerda gap trener-o‘qituvchining qandaydir bir andozadagi (qolipdagi) shaxsga tenglashtirish zarurligi to‘g‘risida emas, balki uning o‘z individual sifatlaridan ustalik bilan foydalanishi, o‘zida shaxsning zarur xislatlarni tarkib toptirishi, o‘z kamchiliklariga barham berishi to‘g‘risida boradi.

Pedagogik texnika quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- nutq madaniyati ;
- pedagogning mimikasi va pantomimikasi;
- o‘z ruhiy (psixik) holatini boshqara olishi;
- aktyorlik va rejisserlik mahorati.

Avvalo pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida **trener-o‘qituvchining nutq malakalarini**, ya‘ni savodli gapirish, o‘z nutqini

chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi **trener-o'qituvchining mimik va pantomimik ifodaliyligidir**. Aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zni tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muammoli vositalari bo'ladi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda **trener-o'qituvchining o'z hissiy (psixik) holatini boshqarish**, o'zida eng qulay hissiy (ijodiy) jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixoxlik kafiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol' o'ynaydi. Bu mahorat pedagogikaning kasbiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qilishlarini ta'minlaydi, ko'p yillar davomida sog'lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyish yordam b'eradi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil etish uchun **trener-o'qituvchi aktyorlik va rejissyorlik mahorati** tarkibiy qisimlarini egallashi zarur, ularni trener-o'qituvchiga bolalar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql-idrokigagina emas, balki ularning his-tuyg'ularniga ham ta'sir ko'rsatish ularga olamga bo'lgan hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini ancha to'liq bera bilishligi yordamlashish.

Pedagogik texnika shunday yig'indiki, u trener-o'qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq atvori, boshqacha aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchiga samarali ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Pedagogik texnika malakalarning muhim xususiyatlari qo‘yidagilardan iborat:

Pedagogik texnikaning aniq ifodalangan individual shaxsiy tarzda bo‘lishi, ya’ni pedagogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning yoshi, jinsi, mijosi, fe‘l-atvori, sihat-salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Nutqning ifodali, sof bo‘lishi ustida ishlash fikrlarining ravon bo‘lishiga ta’sir qiladi. Nutq imo-ishora, mimika, harakat bilan birga sodir bo‘ladi, uzluksiz o‘zini tuta bilish ta’sirchan vositalarini tanlashga, muvaffaqiyatli ravishda tuzatish kiritib borish imkonini beradi.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatishda yuqoridagi malakalar orqali pedagogning ma’naviy va estetik nuqtai-nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to‘laroq ochib beriladi.

Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma’lum darajada pedagogning umumiy ma’daniyat darajasini, ya’ni shaxsning pedagog imkoniyatlarni aks etadi.

Pedagogik jarayon shaxs va jamoatga ta’sir ko‘rsatish bo‘lib, u ta’lim-tarbiya jarayoning texnologiyasini ochib beradi. Unga pedagogikning didaktik, tashkilotchilik, konstruktivlik, kommunikativ ko‘nikmalar, qo‘yidagi talablarning texnologik usullari, pedagogik muloqotni boshqarish, jamoaning ijodiy ishlarni tashkil etish va boshqarish kiradi.

Pedagogning tashqi ko‘rinishi estetik jixatdan mukammal bo‘lishi kerak. Trener-o‘qituvchilarning tashqi qiyofasi ham uning obro‘yining tarkib topishga ta’sir etadi. Trener-o‘qituvchining saramjon-sarishtaligi,

ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi ta'a'surot qoldiradi.

Trener-o'qituvchi qo'yidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- a) ortiqcha badqavoq bo'lmaslik;
- b) boshqalar nuqsonlarini oshirib ko'rsatmaslik;
- v) hazil mutoyibaga moyil bo'lish;
- g) xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash

Ayrim mutaxassislar tovush va uning tembri tug'ma xususiyat, deyдилar, lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgarishi mumkinligi tasdiqlaydi.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir necha mashq komplekslari ishlab chiqilgan. Ular asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtiradi, bu esa trener-o'qituvchiga o'z so'zi mazmunini trener-o'qituvchilarga yanadi to'laqonli qilib yetkazishga imkon beradi.

Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fizologik funksiyani bajaradi. Shu bilan birga u nutq energiya bazasi bo'lib ham hisoblanadi. Nutq so'zlayotganda nafas olish-fonatsion nafas olish deyiladi (rengotovush). Kundalik hayotidagi nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. Shuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Mashg'ulot davomida trener-o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi. Qaysi mushaklarning ishtirok etishiga qarab nafas olish 4 turga bo'linadi.

1. Yuqori nafas-yelkalarni ko'tarilib tushishi va ko'krak qafasining yuqori qismi ishtirokida hosil qilinadi. Bu bo'sh yuzaki nafas bo'lib, unda o'pkaning faqat yuqori qismi ishtirok etadi.

2. Ko'krak nafas-qovug'lar o'rtasidagi mushaklar yordamida hosil bo'ladi. Bunla ko'proq nafasning ko'ndalang hajmi o'zgaradi.

3. Diafragma ishtirokidagi nafas-ko'krak nafasning bo'ylama hajmini oshishi hisobga vujudga keladi.

4. Diafragma-qovurg'ali nafas-diafragmaning qisqartirish, qovug'lar oralig'idagi nafas mushaklari ishtirokida vujudga keladi.

Tovush-chiqarilayotgan havo hiqqildoqdan o'tishi paytida ovoz pardalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Tovush o'zining qo'yidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

Tovush kuchi-tovush apparati organlarning faol ishlashiga bog'liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tarqashiga bo'lgan bosimi qancha katta bo'lsa, tovush ham shuncha ko'chli bo'ladi.

Tovush parvozi-tovushning uzoq masofaga uzatilishi va qattiqligini sozlab olish.

Tovush ixchamligi va harakatchanligi-uni mazmuniga, tinglovchi moslab o'zgartira olish imkoniyatini bildiradi.

Diapazon-tovush hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohang bilan belgilanadi.

Diapazon qisqarishi nutqni bir ohangli bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bir ohangda gapirish axborotni idrok qilishni susaytiradi, uyquni keltiradi.

Tembr-tovush rangdorligi, yorqinligi hamda uning yuqumligi va alohidaligidir.

Diksiya-aniq talaffuz qilish. Talaffuzning aniqligi trener-o'qituvchi nutqining o'quvchilar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi.

Ritm-bu ayrim so'z va bo'g'inlarning aytilishi muddati va to'xtash, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishni bildiradi.

Ritm nutqning eng asosiy qisimdir, chunki, nutq ohangi va to'xtamlar ham tinglovchilarga beixtiyor o'zgacha hissiy ta'sir ko'rsatadi.

So'zlayotganda obrazga kirish, ovozni kerakli joyda pastlatish, ohista gapirish trener-o'qituvchi mahoratiga bog'liq.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari: trener-o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir.

Pedagog texnika malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligi hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabanning o'zida mohir trener-o'qituvchi shaxsiy fazilatlarni va kasbiy malakalarini shakillantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol' o'ynaydi, deb aytish mumkin.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh bilan yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi mumkin. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotni mustaqil o'qishda egallanishi mumkin.

Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (to'g'ri artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma-ket ko'rsatilish mumkin.

Pedagogik texnika malakalarini shakillantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi etishmaydigan malakalarini shakillantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki mashqlarning to'liq majmuini o'z ichiga oladi.

Oliy o'quv yurtidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikaning egallash trener-o'qituvchiga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatoliklarning holi bo'lishda, trener-o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Nafas- olish: ikki xil bo'ladi oddiy nafas olish va fonatsion nafas olish. Fonatsion nafas olishning oddiy nafas olishdan farqi nimada?

Oddiy nafas olish vaqtida burun orqali olayotgan va chiqarilayotgan nafasning olinishi va chiqarilish vaqti teng va qisqa bo'ladi.

Ovoz nafas chiqarishdan xosil bo'ladi. Shuning uchun doimiy so'zlaydiganlar uchun nafas olishdagi izchillik-nafas olish, to'xtash va uzoqroq davom etgap nafas chiqarishdan iborat bo'lishi kerak.

Trener-o'qituvchining nafas olishini tartibga solish uchun juda ko'plab mashqlar belgilangan. Shulardan biri, yerga chalqancha yotgan holda burun orqali uzoq vaqt davom etgan chuqur nafas olish yoki shu holatni tik turgan holda qaytarish nafas olish organlarini to'g'ri ishlashiga yordam beradi.

Ko'pchilik trener-o'qituvchilar o'rtasida tabiiy ovozga, ya'ni ham jarangdor, yoqimli ovozga ega bo'lganlarni uchratish mumkin. Lekin tabiiy ovoz ham vaqti bilan o'z kuchini yo'qotadi, o'zgaradi. Ya'ni shuni aytib o'tish kerakki, har bir inson ovozi kuchli, o'zgaruvchan va jarangdor bo'lishi mumkin.

Trenerning bilim, ko‘nikma va malaka darajasi katta hajmdagi akademik bilimlarni egallash bilan emas, o‘zlashtirgan bilimlaridan amalda samarali foydalana olish qobiliyatiga qarab baholanadi. Sport va ijtimoiy munosabatlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni davrda axborot (bilimlar) shu darajada ko‘pki ularning hammasini o‘zlashtirishga inson qodir emas.

Pedagogik maqsadning o‘ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni trener-o‘qituvchi faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta’minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o‘tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi.

Trener-o‘qituvchi faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Trener-o‘qituvchi o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote

ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o'z-o'zidan kelaveradi».

Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki trener-o'qituvchi maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir trener-o'qituvchilar o'z faoliyatini mantiqini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir.

Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

Trener-o'qituvchi doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa trener-o'qituvchidan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

O'quvchilarga trener-o'qituvchidan tashqari, atrof muhit, ota-ona, umumta'lim maktablaridagi fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham trener-o'qituvchi mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O‘quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta’sir ko‘rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun trener-o‘qituvchi o‘zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

Ayrim trener-o‘qituvchilar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta’lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida trener-o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini sport faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda trener-o‘qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta’sir etadi. Trener-o‘qituvchi faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o‘quvchilar bilan muomalasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Odatda bularning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali trener-o‘qituvchi, uning xatti-harakati o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o‘qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o‘qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishini unutmazlik lozim.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy aytganidek: «Muallimning maqsadi mansab uchun kurash bo‘lmasligi, bilmagan ilmlarini aytmasligi, o‘zini ko‘rsatish uchun dars bermasligi, ochko‘zlik va johillik qilib, quruq gap sotmasliklari, g‘avg‘o ko‘tarmasliklari lozim». U muallimlikni olijanob va faxrli kasb deb hisoblaydi.

Ta’lim muassasasi trener-o‘qituvchilarining ma’naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya’ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni ta’lim

muassasasi trener-o'qituvchilari pedagogik faoliyati jarayonini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Shunday ekan, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda kompetentlik trener-o'qituvchining individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek zamonaviy talablar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlanadi.

Demak, kompetentli trener-o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yo'nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo'lgan, yosh davrlar psixologiyasini yaxshi biladigan, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq eta oladigan, tegishli ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy kasbiy tajribaga ega bo'lgan pedagogik shaxsni ifodalaydi.

Trener-o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar va keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda trener-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini bir necha komponent (yo'nalishlar)lardan iborat tizim sifatida, ya'ni trener-o'qituvchilarga shakllanishi zarur bo'lgan tushunchalar bilim, ko'nikma va malakalar, qobiliyat va mahorat, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda umuminsoniy xislatlar orqali ifodalash mumkin.

Trener-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi

tushunchalar darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyat va ko'nikmasi, uning o'z-o'zini rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, unda o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va ob'ektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashtirish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligi va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektiv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish faoliyatni ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kompetentli trener-o'qituvchi deyishimiz mumkin.

Trener-o'qituvchilarning kompetentligini kichik uch tizim, ya'ni bilish zarur bo'lgan tushunchalar, o'zlashtirilishi zarur bo'lgan

ko'nikmalar va ularda shakllantirilishi zarur bo'lgan kasbiy amaliyotga ega shaxsiy sifatlar orqali ifodalash mumkin:

- ta'lim oluvchilar faoliyati samaradorligini tahlil qilish va ob'ektiv baholashga xizmat qiluvchi refleksiv ko'nikmalar;
- ta'lim oluvchilarning hatti-harakatlarining natijalarini hamda o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini oldindan his etish ko'nikmalari;
- ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalari;
- pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatni muvofiqlashtirish ko'nikmasi;
- pedagogik jarayonlarda samaradorlikka va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash ko'nikmasi;
- o'quvchilarda ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish va vaziyatlarga ko'ra trener-o'qituvchilik uslublaridan oqilona foydalanish ko'nikmasi;
- o'quvchilar bilan o'zaro til topishish, ya'ni muloqotga oson kirishish ko'nikmasi;
- pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning faolligini ta'minlash, ularni hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga undash ko'nikmasi;
- axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish ko'nikmasi;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;
- tegishli yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ilg'or pedagogik tajribalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish, innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishni bilish;
- xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'limning barcha turlari mazmunini, ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligini, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;
- shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'lish;
- o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- shaxsiy manfaatlarini umummilliy manfaatlar bilan uyg'un holda ko'ra olish;

- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etish;
- mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida faollik ko'rsatish;
- milliy an'ana,urf-odatlar va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlod qalbi va ongiga, ona-yurtga muhabbat, istiqbolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishga intilish;
- ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga tushuntirishda prinsipiiallik;
- tizimli fikrlash keng dunyoqarash va refleksiv tafakkurga ega bo'lish;
- tadqiqotchilik va tahliliy faoliyatga, ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik mahoratni oshirish, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishga, innovatsion jarayonlarga va yangiliklarga moyillik;
- oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zgaralar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.

Trener-o'qituvchining pedagogik kompetentligi yo'nalishida qo'yilayotgan eng asosiy talablaridan biri Ona-yurtga muhabbat va sadoqat, Vatan va vatanparvarlik tuyg'ularini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish, o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyati, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va rasm-rusumlar, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish

bilan bog‘liq funksiyalarni bajarish yo‘nalishidagi tashkilotchilik, tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari hamda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarning shakllanganlik zaruriyatlarini o‘z ichiga oladi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

4-mavzu. Ta’limning tashkiliy shakllari va vositalari.

Reja:

4.1. Ta’limning tashkiliy shakllari.

4.2. Ta’limning vositalari.

Ilmiylik; tizimlilik va izchillik; tarbiyalovchilik xarakteri; nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi; ko‘rsatmalilik; ongillik va mustaqillik; faollik, bilim va ko‘nikma, malakalarni puxta o‘zlashtirish; tahsil oluvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mosligi; ta’lim, tarbiya va rivojlanishning birligi. bilish-ta’lim jarayonining metodologik asosi

4.1. Ta’limning tashkiliy shakllari.

Ta’limning asosiy vazifasi shaxsni ilmiy bilimlar ko‘nikma va malaka bilan qurollantirishdan iborat. Ta’lim inson bilish faoliyatning bir turi sifatida bir necha ma’noni bildiradi. Ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e’tiqodlarni shakllantirish, ularning qobiliyatlarini o‘stirishdir. Ta’lim orqali yosh avlodga insonning tajribasi orqali to‘plangan bilimlar beriladi.

Ta’lim o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi faoliyati bo‘lib, unda ikki tomon o‘qituvchi va o‘quvchi faol ishtirok etadi. O‘qituvchi aniq maqsadni ko‘zlab reja va dastur asosida bilim ko‘nikmalarni singdiradi. O‘quvchi esa uni faol o‘zlashtirib oladi.

O‘qituvchi o‘quvchining bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o‘quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta’lim jarayoni orqali uch vazifasini xal qilish lozim.

1. Ta’limiy maqsad - o‘quv materiallarining mazmunini bilish, yangi fanga tegishli bo‘lgan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olish.

2. Tarbiyaviy maqsad- fan asoslarini o‘zlashtirish orqali uni mazmunida yotgan g‘oyalar, dunyoqarashlar tasnifida o‘zining shaxsiy sifatlarini, imon e‘tiqodlarini shakllantirishdir.

3. Rivojlantiruvchi maqsad - ta‘lim jarayoni ta‘sirida shaxsning aqliy kamolatini, bilish qobiliyatini, o‘qishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida- o‘quvchida mustaqil ishlash iste‘dodi paydo bo‘ladi.

Ta‘lim turli bosqichlarda amalga oshadi:

1-bosqich- o‘quv materiallarni idrok qilishdan iborat.

2-bosqich o‘quvchilar o‘quv materiallarini tushunib oladilar.

Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo‘ladi.

1-bosqich- yangi bilimlar mashqlar, mustaqil ishlar, o‘qituvchining qo‘shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

- o‘zlashtirilgan bilimlar amaliyotga tadbiiq qilinadi.

O‘qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog‘i sifatida qator vazifalarni bajaradi: - o‘quvchilarda bilim, malaka, ko‘nikma hosil qiladi;

ularda dunyoqarash, ishonch va e‘tiqodlarini

o‘stiradi,shakllantiradi;

o‘quvchilarni muayyan darajada o‘qimishli, madaniyatli kishilar bo‘lib yetishishlariga qobiliyat, iste‘dodlarini o‘stirishga erishiladi.

Ta‘lim prinsiplari quyidagilardir:

ta‘limning ilmiylik prinsiplari.

tizimlilik va izchillik prinsiplari.

ta'limda onglilik, faollik, mustaqillik
nazariyaning amliyot bilan bog'liqligi
ta'limning ko'rsatmaliligi
ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri
ta'lim jarayonida har qaysi o'quvchiga xos xususiyatlarni
hisobga olish
ta'limda ilmiy bilim va ko'nikma, malakalarni puxta,
mustahkam o'zlashtirish
ta'limni o'quvchiga mos bo'lishi
ta'lim va tarbiya birligi.

Ta'limning ilmiyligi prinsipi

Ilmiy bilimlar – voqelikning haqqoniy in'ikosidir. Tevarak atrofni o'rab olgan dunyoning qonuiyatlarini, narsa va hodisalarning ichki muhim xossalarini va o'zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilimlarga ilmiy hisoblanadi.

Ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu prinsip ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni ob'ektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi prinsipi

Dars mazmunining muqobil tuzilishini tanlash, o‘qitishdagi didaktikaning tizimlilik prinsipini hisobga olishni talab qiladi.

Ta’limda izchillikka rioya qilib o‘qitish lozim, toki bugun o‘rgatilgan bilimlar kecha o‘rganilganlarini mustahkamlasin, ertaga o‘rganiladiganlariga zamin hozirlasin. Izchillikka asoslangan ta’limning xarakterli belgisi shundaki, u o‘quvchilarning oldindan o‘zlashtirgan bilim va malakalari zahirida yangi bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularning o‘zaro bog‘lanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldindan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yana ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta’minlashga qaratilganidir.

Ta’lim va tarbiyaning birligi prinsipi

Yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ta’lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o‘quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog‘liq.

Ta’limda nazariyaning amaliyot bilan bog‘lab o‘qitish

prinsipi

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilar nazariy va amaliy tayyorgarilikni o‘zlashtiradilar. Mazkur holat an’anaviy didaktikada ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi kabi ifoda etiladi. Ta’limda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to‘la va chuqur

bo'lishini ko'zda tutadi. U odamdan yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik prinsipi

Ta'limning onglilik prinsipi o'quvchilar yangi materialni idrok qilishda ta'riflar, teoremlar, adabiyotdan she'r yodlash va hokazolarning ifodlanishi emas, balki ularning hayotiy hodisalar, jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mazmunini ham tushunishlarini talab qilinadi. Aks holda quruq yodlab olingan matnni qayta aytib bera oladilar, lekin uning mohiyatini tushunmaydilar va amaliy faoliyatlarida qo'llay olmaydilar.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligi, ularning aqliy faoliyati-tafakkur qilish faoliyatidir. Shunga ko'ra, ta'limni ongli o'zlashtirish prinsipi, bir tomondan, o'quvchilarning mustaqil, faol fikr qilishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, aynan shu jarayon davomida o'quvchilarning mustaqillik va faolliklarini hamda mantiqiy fikr qilish faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishni nazarda tutadi.

Onglilik va faollik prinsipi o'quvchilarni mehnat va o'qishda ijodiy faoliyat usullarga o'rgatishni talab etadi.

Ta'limda ko'rsatmallilik prinsipi

Ta'limda ko'rsatmallilik prinsipi didaktik prinsiplardan biri bo'lib, u o'qitish jarayonining sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini

osonlashtiradi. O'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan narsa va hodisalarni bevosita idrok qilishga bog'liq muayyan hissiy- amliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o'zlashtiradilar. Ko'rsatmalilik bo'yicha ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan materiallarni quyidagicha guruhlariga ajartish mumkin:

1. Sport inventarlarini , tabiiy holicha ko'rsatuvchi materiallar;
2. Audio, video materiallar;
- 3 Tasviriy - ko'rsatmali qurollar.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish prinsipi

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish prinsipi – o'quv materiallarning mazmuni, uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarning jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarligi saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Moslik prinsipida ta'limning ikki tomoni e'tiborda tutiladi:

1. Ma'lum sinf yoki bosqich uchun belgilangan o'quv materialarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi.

2. Har bir sinf yoki bosqich uchun belgilangan bilim hajmi shu sinf o'quvchilarining saviyasiga mos bo'lishi lozim.(DTS)

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi prinsipi

Ertalabki soatlar mashg'ulotlarni bajarish uchun juda qulay hisoblanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli

bo'lishini ta'minlaydi. Demak, tabiat bilan uyg'unlik g'oyasi asta-sekinlik, ketma-ketlik va mustaqil faoliyat kabi ta'lim tamoyilining asosi hisoblanadi.

Ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish prinsipi

Ta'limning puxta o'zlashtirish prinsipi muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni o'quvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qo'llay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Puxta o'zlashtirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan takrorlash va mashq qildirishga bog'liqdir.

Jismoniy tarbiya va tanlangan sport turdagi ta'limning mazmuni davlat dasturlari va o'quv qo'llanmalar, darsliklarda aks ettirilgan bo'lib ularni DTS asosida o'zlashtirish majburiydir.

O'quv rejasi- o'quv predmetlari (fanlari) , ularni ta'lim bosqichlari bo'yicha o'tish izchilligi hamda o'quv yiliga yoki har bir haftaga ajratiladigan soatlar hajmining soni ko'rsatiladigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturi - davlat hujjatidir. Unda har bir predmetning mazmuni ochib beriladi va o'quv yilida o'zlashtirib olish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi. Dasturlar ma'lum bir tipdagi hamma maktablar uchun yagona uni to'la hajmda bajarilishi majburiydir. Dastur tushuntirish xatidan bo'lim va mavzular bo'yicha taxminiy soatlar hisobidan, dastur materiallari va tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

O‘quv predmeti - o‘ziga tegishli fan asoslarini mujassamlashtirgan bo‘ladi. Fan asoslari tushunchalar sistemasini, ulardan kelib chiqadigan asosiy qoidalar, natijalarni ifodalashning so‘z va simvolik vositalarini o‘z ichiga oladi. O‘quv predmeti tegishli fandan asosiy qoidalarni ifodalanishi bilan farq kiladi. Unda natija, xulosalar va tushunchalarni didaktik prinsipi va ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zaurligi bilan belgilanadigan boshqa farqlari ham bor. Biroq bu fan ma’lumotlarini kisqartirilgan yoki soddalashtirilgan xolda berish emas, balki ularni o‘quv jarayoniga muvofiq ravishda pedagogik jihatdan qayta ishlanishdir.

Darsliklar va o‘quv ko‘llanmalar . Maxsus ravishda o‘quvchilar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi. Unda o‘quv dasturining barcha materiallari batafsil va izchillik bilan ochib beriladi. Uning xarakterli xususiyati uning mazmuni o‘quv dasturga mos kelishidir. Material bo‘limlar bo‘yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu alohida bobni tashkil etadi. Unga kiritilgan masalalar esa paragraf shaklida bo‘ladi. Har bir qism alohida mustaqil sarlavhalar va sarlavhachalarga ega bo‘ladi: bu o‘rganiladigan mavzuning asosiy qismlarini to‘g‘ri tasavvur etishga yordam beradi. Darslikda fikrlar lo‘nda tushunarli qilib ifodalanishi, material esa tushunish uchun oson formada bayon qilinishi kerak.

DTS- Ta’limni standartlashtirish insoniyatning ijtimoiy ongida ro‘y bergan tub o‘zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Standart ta’limda yaratilgan me’yoriy reja, dastur, darsliklarni o‘zlashtirish ekvivalenti, ya’ni ta’lim mazmunini o‘zlashtirish darajasidadir. O‘quvchilar egallashi mumkin bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka (BKM) yoxud ma’naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy

asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat DTS hisoblanadi. Standartlarda belgilangan natijalarga erilishilmasa yo o'sha ko'rsatkichlarni egallay olmagan bola, muayyan miqdordagi BKM va ma'naviy sifatlarni shakllantira olmasa bunday pedagogikani mukammal deb bo'lmaydi. DTS- nazorat vositasi ayni vaktida, ta'lim muassasalarida ko'zlagan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir.

DTSning ikkinchi asosiy vazifasini ko'rsatish mumkin: bunday standartlar umumiy o'rta ta'lim maktabda o'quvchilarga beriladigan ta'lim mazmunini majburiy minimumini, hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta'lim mazmunini majburiy minimumi o'quv dasturlari va darsliklarda to'liq o'z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra o'quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo'lgan BKM minimal miqdori belgilanadi. Umumiy o'rta ta'limning DTS talablari boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilari qo'yiladi. 4-sinfni va 9-sinfni bitiruvchi har bir o'quvchi DTS larda belgilangan BKM erishgan bo'lishi shart.

DTS larning maksimal va minimal darajalari o'quvchilarda muayyan ta'lim sohasi jumladan, tabiiy fanlar, ijtimoiy- gumanitar sohaga oid o'quv predmetlari doirasida: a) o'quv hamda umummehnat ko'nikmalarini shakllantirish; b) turli yoshdagi bolalarga ularning yoshiga va o'zlashtirish imkoniyatiga mos bo'lgan darajada ta'lim olishni o'rgatish, ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun imkoniyat yaratish, ya'ni ta'lim mazmuni mahsuldor modellarini yaratish uchun keng yo'l ochib berish; v) davlat ta'lim standartlari talablari doirasida ta'lim

mazmunini muqobil ko'p variantli modellarini qo'llash; g) turli darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar uchun alohida darajalardagi tabaqalashtirilgan ta'limga yo'l ochishni nazarda tutgan holda belgilab berildi.

DTS darajasida bitiruvchi sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni aniqlashda masalaga shaxs, jamiyat ishlab chiqarish va fan talablari hamda ehtiyojlari nuqtai-nazaridan yondoshildi. Bunda: ta'lim jarayonida o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan o'quv materiallarining davlat va jamiyat taraqqiyoti fan va ishlab chiqarish hamda ijtimoiy soha ehtiyojlariga mos kelishi.

DTS doirasida belgilab berilgan yo'nalishlarning muayyan o'quv predmeti yoki ta'lim sohasi bo'yicha o'quv metodika majmualarida taqdim etiladigan o'quv materiallarining iqtisodiy hamda evristik, shuningdek zaruriy darajalarini aniq belgilab bera olishi; O'quvchilarning egallagan BKM tezkor nazorat qilish mexanizmi nazarda tutiladi.

6 - mavzu. Jismoniy tarbiya va sport ta'limida pedagogik texnologiyalar.

Reja:

6.1. Jismoniy tarbiya va sport ta'limida pedagogik texnologiyalar.

Sport ta'limida innovatsiyalar - sport ta'lim tizimida yoki o'quv-mashq jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Pedagogik trening, Pinbord, Muzyorar, Keys stadi, Klaster - shaxsga intensiv ta'zir ko'rsatish metodlari majmui;

**O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM
TASHKILOTLARIDA SPORT FANINI NAZARIY
MASHG'ULOTLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR**

O'rta maxsus professional ta'lim tashkilotlarida sport fanini nazariy mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni tashkil etish va boshqarish klassifikatsiyasi quyidagilar:

(“Texnologiya” yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib (“techne” - mahorat, san‘at, malaka va “logos” - so‘z, ta‘limot) ma‘nolarini anglatadi.)

O'rta maxsus professional ta'lim tashkilotlarida ta'limi jarayonini tashkil etish va boshqarish integrallashuvi natijasida innovatsion va AKT texnologiyalar modulning maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan xolda tanlanadi hamda qo'llaniladi :

- an'anaviy ma'ruzada - boshqarish sust, frontal, verbal;
- AKT yordamida ta'limni tashkil etish: boshqarish sust, frontal, vizual.
- konsultatsiya , yo'naltirilgan, verbal;
- kichik guruxlar texnologiyasi - differensial faol boshqariluvchi;
- individual- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- muammoli ta'lim – tinglovchi guruhiga yo'naltirilgan;

Trentning pedagogik faoliyatini takomillashtirishda quyidagi texnologiyalar taklif qilinadi:

1. Operatsion texnologiyalar – bilim, ko‘nikma va intellektual salohiyatni rivojlantiruvchi texnologiyalar xisoblanadi.
2. Estetik – milliy, madaniy, axloqiy fazilatlarga yo‘naltirilgan texnologiyalar;
3. Evristik – kreativ yondashuvni rivojlantiruvchi texnologiyalar; tinglovchilardan qo‘yilgan muammoga ijodiy yondashib yechimini topishni talab etadi.
4. Amaliy texnologiyalar – amaliy mashg‘ulotlarda xatti- harakatlarni takomillashtiruvchi texnologiyalar.

O‘rta maxsus professional ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonni tashkil etishda tinglovchi va professor - o‘qituvchining munosabatlarini quyidagi yondoshuvlarga ajratish mumkin:

An’anaviy ta’limda: tinglovchilar passiv iste’molchi, faoliyati

boshqarilmaydi, an’anaviy ma’ruza ustun turadi.

Avtoritar texnologiyalar: Professor - o‘qituvchi asosiy sub’ekt boshqaruvchi, talab qiluvchi, yetaklovchi sifatida. Tinglovchi passiv iste’molchi, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga e’tibor qaratilmaydi.

Didaktik yondoshuv texnologiyasi: markazida ta’lim jarayoni turadi va u tarbiyadan ustun qo‘yiladi. Nazariy va amaliy ta’limga didaktik yondoshuvda pedagog va tinglovchi hamkorlikda faoliyat olib boradilar.

Ta’lim muassasasi nazorati – kompyuterda kirish – chiqish testlari, frontal (yalpi), yo‘naltirilgan (individual), o‘qituvchi ishtirokida suhbat.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar: Ta‘lim tizimining markazida tinglovchi shaxsi turadi. Tinglovchiga sog‘lom psixologik muhitni tashkil qilish, nizolardan asrash, jismoniy, intellektual imkoniyatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilishni to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

Psixoterapevtik yo‘nalishda - tinglovchini har tomonlama qo‘llab - quvvatlash, xurmat va mehr bilan qarash va ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish va tolerant munosabatda bo‘lish.

Hamkorlik texnologiyasida - demokratiya, liberallik, tenglik kabi munosabatlar, sub‘ekt - ob‘ekt sifatida ta‘lim jarayoni tashkil etiladi.

Erkin tarbiya texnologiyasi - tinglovchiga tanlash, mustaqillik erkinligi beriladi. O‘zi tanlagan vosita va mazmuni to‘liq qabul qiladi, hamda bu faoliyatni ishtiyoq bilan bajarishida ichki ehtiyojini qondirilishda uyg‘unlik hosil bo‘ladi.

Tinglovchilar innovatsion texnologiyalarni quyidagi shakllardan foydalanishlari tavsiya qilinadi: an’anaviy, kompensatsiyali ta‘lim texnologiyalari (pedagogik korreksiya, faoliyatiga tegishli yangiliklarni kiritishga qaratilgan texnologiyalar); tarbiyasi og‘ir bolalar, iqtidorli bolalar bilan ishlash texnologiyalari.

An’anaviy ta‘lim tizimini modernizatsiyalash asosan quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish;
Trenerlar faoliyatini intensivlashtirish, faollashtirish;

Ta'lim tizimini tashkil qilish va boshqarishning sifat va samaradorligi oshirishda, metodlarini takomillashtirish. Xalq pedagogikasidan samarali foydalanish.

Sport ta'limida innovatsiyalar (*ingl. "innovation" - yangilik kiritish, ixtiro*) – sport ta'lim tizimida yoki o'quv - mashq jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Pedagogik trening - mashqlar va takrorlash asosida malaka, metod, muayyan ta'sirlarni mustahkamlashning amaldagi ko'rinishi; Shaxsga intensiv ta'sir ko'rsatish metodlari majmui; Guruh va shaxsga ta'sir ko'rsatish amaliyoti; (muayyan chegaradagi) ta'lim shakli.

INNOVATSION, AKT TEXNOLOGIYALARI

Slyd taqdimoti usuli – o'quv materiallarini slaydlarda taqdimot qilish yordamida bayon qilish. Slaydlardan foydalanish katta axborot hajmini joylashtirish nazarda tutilmaydi.

PINBORD TEXNOLOGIYASI:

Pinbord (*inglizchadan: pin - mustahkamlash; board – doska, doskaga mustahkamlash*). Bu texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, kichik guruh a'zolari bilan auditoriyadagi tinglovchilari munozarasi yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan bog'lanib ketadi.

Afzallik funksiyalari - rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: tinglovchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati takomillashadi; O'z fikrini fakat og'zaki emas, balki yozma ravishda

bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. “Pinbord texnologiyasi” - vazifalarni hal etish bo‘yicha g‘oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Sportda trener tomonidan belgilangan vazifalarni hal etish bo‘yicha shug‘ullanuvchilarga o‘z nuqtai - nazarini ifodalashni taklif etiladi. Pinbord texnologiyasidan yangi mavzu bo‘yicha birlamchi bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish taklif qilinadi.

Sportda trener tomonidan belgilangan pinbord texnologiyani quyidagicha qo‘llash tavsiya etiladi: tinglovchilarni kichik guruhlariga ajratiladi va vazifalar beriladi. Guruhlarga vazifalarni bajarishlari uchun rangli kartochkalar va markerlar tarqatiladi. Berilgan vazifani kichik guruh a‘zolari kelishilgan holda qog‘ozlarga yozib boradi. Guruhdan bitta ishtirokchi yozadi, qolgan ishtirokchilar vazifa javoblarini aytib turadi. Har bir fikr alohida bitta qog‘ozga yoziladi. Keyingi fikr yana bir boshqa rangli kartochkaga yoziladi. Shu tariqa, nechta fikr bo‘lsa, shuncha rangli kartochka ishlatiladi. Vazifani bajarishga 5 daqiqa vaqt beriladi. Vazifa bajarib bo‘lgandan keyin, rangli kartochkalar magnitlar yordamida doskaga mahkamlanadi va taqdimot qilinadi. Taqdimotga 3 - 5 daqiqadan vaqt ajratiladi. Barcha kichik guruhlar taqdimotidan keyin guruhlar bilan birgalikda bajarilgan vazifalar muhokama va tahlil qilinadi.

Mavzu: Trener - o‘qituvchining kompetentligi, sport formasining tarbiyaviy ahamiyati:

Jadvalni “Pinbord” texnologiyasi asosida to‘ldiring:

Trener - o‘qituvchining kompetentligi, sport formasining tarbiyaviy ahamiyati					
Trener - o‘qituvchining shug‘ullanuvchilar bilan munosabati		Kasbiy kompetentlik		Trener – o‘qituvchi, sportchining sport formasining tarbiyaviy ahamiyati	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

Jadval to‘ldirilgach, tinglovchilar bilan muhokama qilinib javoblar baholanadi.

“BOKS” MAVZUSI BO‘YICHA “PINBORD” TEKNOLOGIYASIDA O‘QUV - MASHG‘ULOTINI O‘TKAZISH

“Pinbord” texnologiyasi bo‘yicha kichik guruhlariga quyidagicha vazifa beriladi:(*namuna sifatida*)

1-kichik guruhga: Boks atamasining o‘zbekcha ma’nosi, boks sportining tarixi.O‘zbekistonda birinchi marta nechanchi yilda boks musobaqasi qaysi sport jamiyatida o‘tkazilgan.Uni uyushtirgan trenerning ismi, familiyasini bilasizmi?

2- kichik guruhga:Zamonaviy boks qoidalari nechanchi yili va qaysi davlatda ishlab chiqilgan? Qaysi yildan Olimpiada dasturlariga kiritilgan,

nechanchi yildan Jahon chempionati, qaysi yildan Jahon kubogi musobaqalari o‘tkazib kelinadi?

3- kichik guruhga: Boks bo‘yicha Jahonda professional bokschilar nechta yo‘nalishda va nechta vaznda musobaqalari o‘tkaziladi?

4-kichik guruhga: Havaskor bokschilar musobaqasi va professional bokschilar musobaqasi necha minutdan va necha raunddan iborat hamda qo‘lqoplarida taxminan necha unsiyaga farqlanadi?

Kichik guruhlar taqdimotidan keyin tinglovchilar bilan birgalikda bajarilgan vazifalar muhokama va tahlil qilinadi hamda baholanadi. Mashg‘ulot yakunida professor – o‘qituvchining mini ma’ruzasi o‘tkaziladi.

MINI MA’RUZA MATNI

Mini ma’ruzaning namunaviy matni ilova qilinadi.

Boks - inglizcha *box* - o‘zbek tilida mushtlashish, zarb.

Ikki raqibning sirti charm, ichi yumshoq qoplamali qo‘lqoplarda qoida asosida yakama - yakka mushtlashish musobaqasi.

Boks tarixi miloddan avvalgi davrda Misr va Bobilda uyushtirilgan yakkama - yakka mushtlashish musobaqalariga borib taqaladi. Qadimgi Gresiyada Olimpiya o‘yinlari dasturida ham shunday musobaqalar bo‘lgan.

Zamonaviy boks vatani Angliyadir. Zamonaviy boks qoidalari 1867 yil Angliyada qabul qilingan. Musobaqa vaqtida raqib yiqilganda, hakam kurashni to‘xtatgandan keyin, shuningdek belidan pastga, bosh tananing orqa qismiga zarb berish mumkin emas.

Xalqaro havaskor bokschilar assosiyasiga (AIBA 1946 yili asos solingan) 160 dan ortiq mamlakat a'zo bo'lgan.

Boks 1904 yildan Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan.

1974 yildan jahon chempionati, 1979 yildan jahon kubogi musobaqalari o'tkazib kelinadi.

Ring 6x6 metr o'lchamga ega, arqonlar bilan o'ralgan. Qo'lqoplari og'irligi 270 gr.(10 unsiya). Havaskor bokschilar musobaqasi 3 minutdan 3 raund, raundlar orasidagi tanaffus 1 minutdan. Xalqaro boks musobaqalari 12 vazn toifasida: 49,52,56,60,64,69,75,81,91,+91 kg.gacha va 91 dan yuqori vaznda tashkil etiladi. Musobaqalarga 18 yoshga to'lganlar qo'yiladi. 14, 15 va 16,17 yoshlilar o'rtasida ham musobaqalar uyushtiriladi. Ayrim federatsiyalar boksni ommalashtirish maqsadida o'smir, o'spirinlar 12 tadan ko'proq vaznda musobaqalar o'tkazadilar.

O'zbekistonda zamonaviy boks 20 asrning 20 - yillaridan ommalashgan. 1922 yilda birinchi marta boks musobaqasi "Fortuna" sport jamiyatida o'tkazilgan. Uni trener S.L.Jakson uyushtirgan.

O'zbekiston Respublikasi boks federatsiyasi 1993 yildan AIBA a'zosi.

Jahonda professional bokschilar (boksni kasbga aylantirganlar) o'rtasida to'rtta yo'nalish bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Ularni jahon boks Kengashi (WBC), jahon boks assosiyasi (WBA), xalqaro boks federatsiyasi (IBG') va jahon boks tashkiloti (WBO) uyushtiradi. Professional boksda qo'lqoplar taxminan 227 gr.(8unsiya). Raundlar soni 6, 8,10, 12 ta bo'ladi.

Musobaqalar 17 vazn toifasida: 47,627; 48,988; 50,802; 52, 163; 53,524; 55, 538; 57, 153; 58,967; 62,235; 63, 503;66678; 69,853; 72,575; 76,203; 79,379; 88,450 kg.gacha va 88,450 kg.dan yuqori vaznda tashkil etiladi. Vazn toifalari bo‘yicha o‘zgarishlarni aniqlab boriladi.

“INSERT” JADVALI

Mustaqil ta’lim vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida tinglovchi faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi: Tinglovchilar “Insert” jadvalini to‘ldirish qoidasi bilan tanishadilar va alohida o‘zlari to‘ldiradilar.

Matnni o‘qish jarayonida olgan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtiradilar va jadvalda belgilangan belgilarga muvofiq jadval ustunlariga “kiritadilar”.

“V” - men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-” - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash,
to‘ldirish talab etiladi.

Insert jadvali

V	-	+	?
----------	----------	----------	----------

Voleybol bo'yicha berilgan ma'lumotlar asosida "INSERT" jadvalini to'ldiring:

Voleybol (inglizcha volley ball, volley urib qaytarmoq, ball koptok), o'rtasidan to'r bilan ajratilgan, jamoa bo'lib o'ynaladigan, koptokni qo'l bilan urib qaytaradigan sport o'yini . O'yin qoidasi: bir jamoa 6 kishidan iborat bo'lib, 2 jamoa o'ynaydi. Bo'lingan 9 x 18 metr maydonchada o'ynaladi. O'yinchilar to'pni qo'l bilan urib, raqib maydoniga tushirishga harakat qiladilar. Koptokni uch urishda raqiblar tomoniga o'tkazish lozim.

Musobaqa 3 yoki 5 turda o'tkaziladi. Voleybol 1895 yili AQShda paydo bo'lgan. Xalqaro fedaratsiyasi FIVBga 1947 yilda asos solingan.

1947 yildan jahon birinchiliklari o'tkaziladi.

1964 yildan Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan.

Erkaklar musobaqasi uchun to'ring balandligi 2,43 metr.

Ayollar musobaqasi uchun to'ring balandligi 2,24 metr.

Voleybol O'zbekistonda 1920 yildan o'ynaladi. O'zbekiston Respublikasi 1991 yildan Xalqaro voleybol fedaratsiyasiga, 1992 yildan Osiyo voleybol konfederatsiyasiga a'zo bo'lib kirgan. Voleybol maktablarda, oliy o'quv yurtlarida ommaviy tus olgan, jismoniy tarbiya bo'yicha dasturning ajralmas qismi hisoblanadi.

"F S M U" texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan nazariy mashg‘ulotlaridagi fikrlarni mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

Qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan umumiy fikrlardan yakuniy xulosa yoki g‘oyani yozishlari taklif etiladi;

Har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

F - fikringizni bayon eting

S - fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

**M – ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab
misol (dalil) keltiring.**

U - fikringizni umumlashtiring.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy - nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Raqamli kartochkalar orqali uchta kichik guruhlar shakllantiriladi. Har bir kichik guruhga tarqatma materiallar beriladi. Ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruh tartibda taqdimot qilinadi.

“FSMU” texnologiyasida“ Sport – hayot tarzi ” mavzusi

bo‘yicha topshiriqlar:

1-guruhga savol:Insonning sog‘lom, barkamol bo‘lishida sport qanday

ahamiyatga ega?

F - fikringizni bayon eting

S - fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M - ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil)

keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

2 - guruhga savol: Insonning jismoniy rivojlanishida “muhit omili” qanday ahamiyatga ega?

F - fikringizni bayon eting

S - fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M - ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil)

keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring

3-guruhga savol:Yosh avlodga “irsiyat omili”qanday tushuntiriladi?

F - fikringizni bayon eting

S - fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M - ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil)

keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir kichik guruh berilgan savollar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bayon etadilar. Topshiriqni bajarishga 3-5 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan vaqt tugagandan so‘ng, kichik guruhlardagi topshiriq varaqalari yig‘ib

olinadi. So'ngra kichik guruhlar o'z topshiriqlariga berilgan javobni taqdimot qilishadi. Har bir taqdimotchiga 1-2 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir guruh taqdimotidan so'ng savol - javob orqali muhokama bo'lib o'tadi. Boshqa kichik guruh a'zolari o'z - fikr mulohazalari orqali berilgan javoblarni to'ldirishi yoki takliflar berishi mumkin.

Professor - o'qituvchi esa har bir taqdimotdan so'ng FSMU bo'yicha berilgan savolga keltirilgan javoblarni to'ldiradi va umumlashtiradi.

Mavzu bo'yicha mini - ma'ruza o'tkaziladi.

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod mavzu bo'yicha sportdagi tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach trener - o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Mavzu: “Sport ta’limidagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Tushunchalarga mos keladiganlarini yozing	Qo‘shimcha ma’lumot
Trener		
Kompetensiya		
Strategiya		
Taktika		
Insonparvarlik		
Sport razvedkasi		
Assimilizatsiya		
Autotrening		

Trenerning mutaxassisligiga oid bilim, ko‘nikma, malakalari

Trener yoki sportchining o‘zini ishontirish, boshqarishga qaratilgan maxsus mashqlar to‘plami. Notanish, yangi sharoitda tayyor malaka va ko‘nikmalarda jiddiy o‘zgarishsiz foydalanish. Sportchining raqibi to‘g‘risidagi strategik ma’lumotlar, musobaqa o‘tkazish joyi va shart – sharoiti kabilarni o‘rganish va ularga moslashish. Insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to‘g‘risidagi barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni

ifodalovchi tushuncha. Belgilangan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan vosita va usullar majmuasi. Taktika operativlik san'ati va strategiyaga bo'ysunadi. Harbiy sohada, siyosat, sport va boshqa jarayonlarda vaziyatni oldindan o'rganish asosida rejalashtirilgan maqsadga erishishning samarali harakat yo'lidir.

Izoh: Ikkinchi ustunchaga ishtirokchilar tomonidan qo'shimcha fikrlar yoziladi. Mavzu bo'yicha tushunchalar haqida ma'lumotlar glossariyda keltirilgan.

XULOSA

Yangi O'zbekiston manfaati yo'lida o'zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini baxshida etayotgan professional yetuk, fidoiy sportchilarimiz Yurtimizni dunyodagi eng ilg'or davlatlar safiga ko'tarmoqdalar. Yangi O'zbekistonda sportni yanada rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator Farmon va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari ijrosida, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, tegishli sport turlari bo'yicha assosatsiya va fedaratsiyalar ijobiy natijalarga erishmoqdalar.

Sportchilarini o'quv – mashq va musobaqalarga tayyorlash jarayoniga trenerning integrativ va innovatsion yondoshuvi, sportchilar faoliyatining pirovord natijasini bashorat qila olishi, uning strategiyasi, taktikasi, texnologiyasini avvaldan rejalashtirishi va hal etishini kafolatlashida, sportchining intellektual, jismoniy tayyorgarlikka o'z xohishi bilan shug'ullanishi natijasida muvafaqqiyatlarga erishganlik darajalarini o'z ichiga oladigan hodisadir.

Sport sohasidagi innovatsion jarayonlar, isloholot talablarini trener o'zlashtirib, sportchilarni musobaqalarga tayyorlashga integrativ va innovatsion yondoshuvi, mashg'ulotlarini sifat va samaradorligi jahon standartlari darajasida tashkil eta olishi, sportchi va shug'ullanuvchilarning mashg'ulot va musobaqa jarayonida faol ishtirokchi, mustaqil fikrlovchi bo'lib, yuqori natijalarga erishishlari kafolatlanadi.

“SPORT PEDAGOGIKASI” MODULIDAN TESTLAR

1. Trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi?

- A) Trenerlik faoliyati bo‘yicha malaka oshirganlik sertifikatga ega bo‘lgan;
- B) Trenerlik faoliyati bo‘yicha maxsus ruxsatnomaga ega bo‘lgan;
- V) Trenerlik faoliyati bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan;
- G) Trenerlik faoliyati bo‘yicha o‘rta maxsus professional ma‘lumotga ega bo‘lgan;

2. Pedagog :

- A) Ta‘lim – tarbiya jarayonida katta avlod sohasi bo‘yicha bilimni quyi avlodga o‘rgatuvchi shaxs ;
- B) Yosh avlodga ta‘lim beruvchi shaxs;
- V) Tarbiya jarayonini o‘rganuvchi shaxs;
- G) Ta‘lim – tarbiya jarayonini boshqaruvchi shaxs.

3. Pedagogika qanday fan?

- A) Jamiyatdagi ijtimoiy tajribalarini bir avlod, ikkinchi avlodga yetkazuvchi fan.
- B) Shaxsni rivojlantiruvchi va amaliy tavsiyalar beruvchi fan.
- V) Tarbiyaning muhim tarmog‘i to‘g‘risidagi fan;
- G) Mutaxassisning shaxsga ta‘sir ko‘rsatish haqidagi fan.

4. Pedagogikani rivojlantiruvchi manbalar ?

- A) Ijtimoiy fanlarda ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar ;
- B) Fanda ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar;
- V) Tabiiy fanlarda ilmiy tadqiqotlar texnologiyalar.
- G) Texnikada ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar.

5. “Pedagogika” tushunchasi dastlab qaerda paydo bo‘lgan?

- A) Qadimgi Yunonistonda;
- B) Qadimgi Rimda;
- V) Qadimgi Xitoyda;

G) Markaziy Osiyoda.

6. “Buyuk didaktika” asarining muallifi kim?

A) Yan Amos Komenskiy.

B) Vilgelm Disterberg.

V) Iogan Fridrix Gerbart.

G) Jan Jak Russo.

7. Shaxsni rivojlantirishga qanday omillar ta’sir ko’rsatadi?

A) Jamiyat, oila, ta’lim muassasalari, muhit;

B) Oiladagi tarbiyaviy munosabatlardagi muhit;

V) Mahallarda tarbiya jarayonidagi muhit;

G) Tarbiya jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar muhiti.

8. Qaysi javobda pedagogik jarayonning sinonimi keltirilgan?

A) O’quv - biluv jarayoni;

B) Ta’lim jarayoni;

V) O’qitish jarayoni;

G) Tarbiya jarayoni.

9. Pedagogik jarayonning asosiy komponentlari ?

A) Pedagog, o’quvchi, ta’lim mazmuni, sifati;

B) O’quvchilar, darslik, sinf jixozlari;

V) O’qituvchining metodlari, vositalari;

G) Sinf xonalari, dars jadvali, o’quvchilar.

10. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar?

A) Jamiyatning talab va ehtiyojlari bo’yicha qonunlari;

B) Jamiyatning talab va ehtiyojlari bo’yicha davlat dasturlari;

V) Jamiyatdagi ta’lim tashkilotlarining moddiy texnik ta’minoti;

G) Ta’lim muassasasining maqsad va vazifalarini belgilash.

10. Pedagogik jarayonda amal qilinadigan asosiy qoidalar ?

A) Pedagogik jarayonning didaktik prinsiplari;

B) Pedagogik jarayon shakllarini prinsiplari;

V) Pedagogik jarayon usullari prinsiplari;

G) Pedagogik jarayonning tashkiliy prinsiplari.

11. Pedagog – novator :

A) Yangi shakl va vositalarni qo'llab ta'lim samaradorligini oshiruvchi shaxs;

B) Yangi kasbiy mahorat bosqichlarini o'zlashtirgan shaxs;

V) Mahoratli faoliyatini ta'minlovchi shaxs;

G) Kasbiy faoliyatida metodik jarayonni o'rganuvchi shaxs.

12. Redagogik faoliyat shug'ullanish huquqi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy- axlokiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega.

B) Tegishli ma'lumoti shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega

V) Kasbiy tayyorgarligi bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega

G) Ta'lim jarayonini boshqaruvchi shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega

13.Motiv nima?

A) O'quvchini o'qishga, muayyan ijobiy harakatga undash;

B) O'quvchining bajargan ishining baholash;

V) O'quvchini biror ishni bajarishga undash;

G) Pedagogning kasbiy faoliyati;

14.Ijtimoiy – psixologik metodlar bu ...

A) O'quvchilar jamoasida sog'lom, bilim olish muhiti , ma'naviy rag'batlantirish ishlari;

B) Ta'limda va ta'limdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar;

V) Muassasada o'quvchilar bilan ishlash masalalari;

G) Muammoli o'quvchilar bilan ishlash;

15. Pedagogning kreativ faoliyati bu ...

- A) O‘z faoliyatiga ijodiy yondoshuvi;
- B) Faqat ko‘rsatma, buyruqlarni bajarish;
- V) O‘z sohasidagi vazifalarni bajarish;
- G) Davlat ta‘lim standartlari talablarini bajarish.

16. Pedagogning kasbiy mahorati...

- A) Ta‘lim jarayonida strategiya, maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash;
- B) Ta‘lim jarayonini loyixalashtirish;
- V) Metodlardan to‘g‘ri foydalanish;
- G) Innovatsion – pedagogik faoliyatni tashkil etish.

17. Pedagogning kasbiy motivatsiyasi ?

- A) Kasbga tegishli vazifalarni bajarishga oid faoliyat ta‘sirida shakllanuvchi mayl;
- B) Kasb tanlashni belgilovchi mayl;
- V) Kasbga oid bog‘liq mayl;
- G) Kasbga oid bilim va ko‘nikmalar.

18. Kasbiy yo‘nalish ?

- A) Motivatsiya xohish mayllarga ko‘ra aniqlanadigan kasbiy faoliyat;
- B) Shaxs qiziqishlari tavsifnomasi;
- V) Ta‘lim jarayoniga maqsadli yondoshuvlar;
- G) Shaxs qiziqishlarining munosabatlari.

19. Pedagogning kommunikativ madaniyati ?

- A) Yuksak darajadagi muloqot ko‘nikmalariga egalik;
- B) Shaxslararo axborot almashuvi;
- V) Munozara faoliyati;
- G) Muloqot ko‘nikmalari.

20. “Mahorat” tushunchasi qanday ma’no anglatadi?

- A) Pedagogning mohirlik, ustalik, epchilligi;
- B) Pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish;
- V) Pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish;
- G) Ta'lim jarayoniga psixologik yondoshuv.

21. “Pedagogik mahorat” tushunchasi qanday ma’no anglatadi?

- A) Pedagog - kasbiy faoliyatini ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishi;
- B) Pedagogning o‘quv fanini puxta egallanganligi;
- V) Pedagogning shaxsiy sifatleri;
- G) Ta'lim berish va baholash faoliyati.

22. Insonparvarlik tuyg‘ulari qaysi javobda to‘g‘ri bayon qilingan?

- A) Insonning taqdiri, qadri, erkinligi, baxt- saodati, teng huquqliligiga shart-sharoitlar yaratish ;
- B) Hamkasblari va yoru do‘stlariga sadoqatli bo‘lish va e’tiqod qilish;
- V) milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- G) O‘quvchi, ota – onalar bilan munosabatda do‘stona, vijdonlilik.

23. Samimiylik tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri ifodalangan?

- A) Atrofdagi insonlar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik kabi shaxsiy sifatlar;
- B) Sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
- V) Bag‘rikenglik, ma’suliyatlilik, moslashuvchanlik;
- G) O‘z-o‘zini tahlil qilish va rivojlantirish , kamchiliklarini tuzatish;

24. Pedagogik odobning asosiy shakllari?

- A) O‘qituvchining, jamiyatga, o‘quvchiga munosabatlarida axloqiy talablar ;
- B) Pedagog tomonidan o‘quvchilarning turli harakatlaridagi ma’naviy-axloqiy sifatlariga sub’ektiv munosabati;
- V) Pedagog kasbiy faoliyatida o‘zlashtirilgan ma’naviyat majmui;

G) Pedagog kasbiy faoliyatni zamon talablari asosida tashkil etishi;

25. Mimika tushunchasi?

A) Pedagog nutqiga his-hayajoni, ko‘z, qosh, yuz mushaklari ma’nolarini mosligi;

B) Pedagog fikrlari, kayfiyatini bildirish maqsadi;

V) Pedagogning – o‘quvchi javobidan qoniqmasligi;

G) Pedagogning - o‘quvchi javobidan xursand bo‘lishi;

26. Pantomimika tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri ifodalangan?

A) Pedagogning qo‘l,oyoq, gavda harakatlari: yurish, erkin harakat qilish, jestlar va b.;

B) Ayrim hollarda qo‘llari , boshini uyoq - buyoqqa tashlash va b.;

V) Pedagogning o‘quvchilavrga turli imo - ishoralari va b.;

G) Pedagogning o‘quvchilar oldidagi qo‘pol harakatlari va b..

27. Muammoli vaziyat ?

A) Shaxs yoki guruh faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi xolat;

B) Ta’limning an’naviy ta’sir ko‘rsatuvchi usullari shakli;

V) Shaxs o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilimlar me’yorlari;

G) Mashg‘ulotlarni monolog shaklda amalga oshiriladigan xolat.

28. Pedagog attestatsiyasi ...

A) Pedagog layoqati, malakasi, bilimi va xulq – atvorini aniqlashda o‘tkaziladigan davlat sinovi;

B) Pedagogning ta’lim jarayonini tashkil etish ko‘nikmasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan sinovi;

V) Pedagogning tarbiya jarayonini tashkil etishda mahoratini aniqlash uchun o‘tkaziladigan sinovi;

G) Pedagogning davlat ta’lim standartiga amal qilishini aniqlash uchun o‘tkaziladigan sinov.

29. Pedagog autotreningi?

- A) Pedagog kasbiy layoqati, mahoratini takomillashtirish bo'yicha maxsus mashqlar majmui;
- B) Pedagoglik bo'yicha maxsus mashq savollari majmui;
- V) Pedagog lavozimiga asoslangan maxsus mashq testlar majmui;
- G) Pedagogning ta'lim jarayonini tashkil etishiga maxsus mashqlar majmui;

30. Pedagogning kreativ faoliyati ?

- A) O'z faoliyatiga ijodiy yondoshuvi;
- B) Faqat ko'rsatma, buyruqlarni bajarish;
- V) O'z sohasidagi vazifalarni bajarish;
- G) Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarish.

31. Pedagogning kasbiy motivatsiyasi ?

- A) Kasbga tegishli vazifalarni bajarishda kreativ faoliyat ta'sirida shakllanuvchi mayl;
- B) Kasb tanlashni belgilovchi faoliyatga bo'lgan mayl;
- V) Kasbiy faoliyatga ijodiyotga bog'liq mayl;
- G) Kasbga oid bilim va ko'nikmalar mayli.

32. Andragogika qanday fan?

- A) Andragogika katta yoshdagilar ta'limi;
- B) Andragogika oliy ta'lim;
- V) Andragogika uzluksiz ta'lim;
- G) Andragogika kasb - hunar ta'limi ;

35. Pedagogikaning sport bo'yicha tarmoqlari?

- A) Sport va xarbiy pedagogika;
- B) Xalq va oila pedagogikasi;
- V) Kasbiy va ijtimoiy pedagogika;

G) Surdo va tiflo pedagogika.

33. Ta'lim jarayonida ishtirokchilar miqdori?

A) Yakka va guruh tartibda;

B) Ommaviy va guruhiy tartibda;

V) Amaliy mashg'ulotda ommaviy tartibda;

G) Tabaqalashgan va ommaviy tartibda.

34. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi ?

A) 7;

B) 6;

V) 4;

G) 3.

35. An'aviy ta'limda pedagogik munosabat?

A) Insonparvar;

B) Avtoritar ;

V) Demokratik;

G) Liberal.

36. Respublikadagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida nechta tilda ta'lim olib boriladi?

A) 7.

B) 9.

V) 5.

G) 4.

37. Pedagoglar hayoti, sog'lig'i va turmush tarziga jiddiy zarar yetkazuvchi omillar qaysi?

A) Giyohvandlik, ichkilikbozlik, ta'magirlik;

V) Yovuzlik, xasislik, xudbinlik;

V) Dars vaqtidan to'g'ri foydalanmaslik;

G) Gigenik talablarga rioya qilmaslik.

38.O'g'rilanib bo'lmaydigan va o'z egasi uchun tuganmas davlat nima?

A) **Bilim, kasb – hunar;**

V) Mansab, lavozim;

V) Uy – joy, ko'chmas mulk;

G)Oltin, olmos kabilar.

39.Pedagogning kreativ faoliyati?

A) **Faoliyatiga yangicha ijodiy yondoshuvi;**

B) Faqat ko'rsatma, buyruqlarga yondoshuvi;

V) Faqat tarbiyaviy vazifalarga yondoshuvi;

G) Davlat ta'lim standartlariga yondoshuvi.

40.Pedagogning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni qanday?

A) **Yoshlarni ta'lim - tarbiya , kasb – hunarga yo'naltiradi;**

B) Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishni o'rgatadi;

V) Yosh avlodga o'quv dasturi mavzularni o'rgatadi;

G) O'quvchining bajargan ishining baholaydi.

Tusuvchi: Akmalov Akram – Pedagogika va psixologiya kafedrası prof. v/b.

28. 02. 2023y.

GLOSSARIY

Akademik qobiliyat – sport sohasidagi barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo‘lgan trener - o‘qituvchi sport turlari bo‘yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq biladi, sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib, o‘rganib boradi.

Assimilizatsiya – yangi sharoitda tayyor malaka va ko‘nikmalarda jiddiy o‘zgarishsiz foydalanish.

Autotrening – o‘zini - o‘zi ishontirish, trener yoki sportchining o‘zini – o‘zi boshqarishga qaratilgan maxsus mashqlar to‘plami. (*Autotrengdan trener, sportchi o‘zining ruhiy holati va xulqini boshqarishda foydalaniladi*).

Androgogika – pedagogika fanining alohida yo‘nalishi bo‘lib katta yoshdagilarni malakasini oshirish, o‘qitish va tarbiyalashning nazariy amaliy muammolarini o‘rganadi. Maqsadi, iqtisodiy, ijtimoiy va shaxsiy hayotda faol samarali, mas’uliyatli shaxs faoliyatini takomillashtirishi, malaka oshirishi.

Insonparvarlik (Gumanizm) – insonning insonga bo‘lgan muhabbati, uning qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlari uchun qayg‘urish g‘oyalari bilan sug‘orilgan va kishilar o‘rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash; insoniylik va insonparvarlik, insonlarning bunyodkorlikka ishonchi.

Innovatsion ta’lim (*ingl. “innovation” - yangilik kiritish, ixtiro*) -

ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Sport ta'limida innovatsiyalar – sport ta'lim tizimida yoki o'quv - mashq jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Intellekt –trenerning sportdagi turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirini belgilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to'plami.

Diapazon - tovush hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohang bilan belgilanadi. Diapazon qisqarishi nutqni bir ohangli bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bir ohangda gapirish axborotni idrok qilishni susaytiradi, tinglovchini zeriktiradi.

Didaktik qobiliyat – trenerning sohasi bo'yicha oson yo'l bilan murakkab nazariy bilimlar va amaliy mashqlarni shug'ullanuvchilarga tushuntira olishdir.

Diksiya - aniq talaffuz qilish. Talaffuzning aniqligi trener - o'qituvchi so'zlarini shug'ullanuvchilar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi.

Diqqatni taqsimlash qobiliyati - bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Qobiliyatli, tajribali trener-o'qituvchi barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish - turishni) ham kuzatib boradi.

Ko'nikma – egallagan bilimlar asosida o'zgaruvchan sharoitlarda kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

Kasbiy qobiliyat - bu rahbarlar va trener - o'qituvchilarda intellektual, kasbiy malaka va ko'nikma, chidamlilik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, o'z fikrini yaxshi bayon eta olishi – notiqlik, ishonтира olish, nazorat, kuzatuvchanlik, talabchanlik, xotirada saqlab qolish, tarbiyaviy munosabatlarda faollik hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish, boshqaruvchanlik va liderlik xususiyatlarining shakllanganligi.

Kasbiy kompetensiya – kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim va ko‘nikmaga tayanib muvaffaqiyatli xal eta olishga qaratilgan faoliyat.

Kommunikativ qobiliyatlar - muomala va muloqot o‘rnata olish, shug‘ullanuvchilar bilan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarga tez kirishib ketish qobiliyati, shug‘ullanuvchilarga to‘g‘ri yondoshish yo‘lini topa olish, ular bilan samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, trenerlik nazokatining mavjudligi.

Kompetentlilik - trenerning ijtimoiy - professional mavqei va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy kasbiy moslik darajasi tushuniladi.

Kompetensiya - olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish layoqati. (*Kompetensiya - lotincha **competere** degan so‘zdan olingan bo‘lib, mos kelmoq ma‘nosini bildiradi.*)

Konstruktiv qobiliyat – trenerning sport ta‘limi muassasasida nazariy va o‘quv – mashq, bellashuv ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat trener faoliyati rivojini loyihalashga, shug‘ullanuvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

Qobiliyatlar - trener faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual - psixologik xususiyat.

Malaka – trenerlik kasbini chuqur o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikmani ish faoliyatida qanday saviyada ijro etishini ko‘rsatuvchi daraja ; psixologiyada – muayyan kasbda ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat;

Mahorat – shaxsning tajriba orqali orttirilgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko‘nikma va ijodkorlik asosida hosil bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. (*Mahorat – arabcha so‘z bo‘lib, mohirlik, Pedagoglik, epchillik, katta mahoratga ega va Pedagog degan ma‘noni anglatadi.*)

Malakalar – ko‘p marta takrorlash natijasidagi avtomatlashtirilgan (beixtiyoriy, refleks), harakatlardir.

Nutqiy qobiliyat - ixcham, ma‘noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo‘lgan nutq. Trener - o‘qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg‘uga rioya qilishi.

Pedagogik qobiliyatlar – trener - o‘qituvchining aqliy, emotsional – irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligi, bilimdonligi va ularning bir - biriga bog‘liqligini hamda yaxlit kasb etishi.

Pedagogik takt – trenerning shug‘ullanuvchiga ta’sir etishining pedagogik jihatdan muvofiqlik o‘lchovi, eng samarali muloqot uslub o‘rnatishiga bog‘liqdir.

Pedagogik talab - jismoniy tarbiya jarayonida boshlang‘ich usul bo‘lib, shug‘ullanuvchining muayyan faoliyatini rag‘batlantirishni yoki to‘xtatishni va aniq amaliy hamda ma’naviy sifatlarni namoyon qilishni ta’minlaydi.

Pedagogik texnologiya - YuNESKO tashkiloti tomonidan berilgan ta’rifiga ko‘ra: ta’lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarini hamda ularning o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda o‘qitish va o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimi.

Pedagogik texnologiya – pedagogik muvafaqiyatni kafolatlay oladigan sportchi va shug‘ullanuvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyixalash – tashkiliy majmuasi

Pedagogik texnika – trenerning o‘quv - mashq faoliyatida va undan tashqari faoliyatda ham zarur bo‘lgan umumiy pedagogik metodik malakalar majmuidan tashkil topgan.

Perseptiv qobiliyat - trenerning qisqa daqiqalarda shug‘ullanuvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu shug‘ullanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, uning shaxsi va vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati - trenerning shug‘ullanuvchi kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Trener harakatlari oqibatlarini oldindan ko‘rish, shug‘ullanuvchining kelgusida qanday mutaxassis bo‘lishi hakidagi tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan fazilatlarining rivojlanishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat.

Innovatsion ta’lim (*ingl. “innovation” - yangilik kiritish, ixtiro*) - ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan jarayon.

Ta’lim innovatsiyalari - ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida

qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ritm - bu ayrim so‘z va bo‘g‘inlarning aytilishi, muddati va to‘xtash, nutq va ifodalarning navbat bilan o‘z o‘rnida ishlatilishni bildiradi.

Trenerning mahorati – Shug‘ullanuvchilar bilan ishlashni seva oladigan, trenerning bilim berish va tarbiyalash san’atining takomillashgan va yuqori cho‘qqisi. Madaniyatli mutaxassis, sohasini chuqur biladigan, yangiliklari bilan tanishadigan, shug‘ullanuvchilarning yosh psixologiyasini biladigan, jismoniy tarbiya metodikasini yuqori darajada egallab olgan shaxs. *(Trenerlik mahorati - o‘z kasbining mohir Pedagogsi bo‘lgan, madaniyatli, sport sohasini chuqur biladigan, yondash sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, sprotidagi uslubiyatlarni mukammal egallagan mutaxassis.)*

Tarbiya – sportda shug‘ullanuvchining ma’naviyati, mafkurasi, dunyoqarashini shakllantirishga qaratatilgan ijobiy say’i-harakatlar tizimidir.

Tarbiya turlari – trener va shug‘ullanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va o‘zaro bir - biriga ta’sir ko‘rsatishidir.

Tarbiya usullari – tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etishdir.

Tarbiya shakli - trenerning yakka tartibda yoki shug‘ullanuvchilar jamoasi manfaati yo‘lida tarbiyaviy masalani hal qilish uchun ularlarning yosh va individual xususiyatlarini, sport ta’limida tarbiyalanganlik darajalarini, xarakterini hisobga olgan holda ta’sir etish majmuasi.

Tashkilotchilik qobiliyati - shug‘ullanuvchilar guruhi yoki jamoa a’zolarini sport musobaqalariga tayyorlash, ommaviy sportning tashkiliy ishlariga uyushtirish va uni boshqarish iste’dodi. *(Trenerdagi tashkilotchilik shug‘ullanuvchilarni xilma - xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan shug‘ullanuvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo‘lsa, ikkinchidan, o‘z faoliyatini maqsadli, mustaqil takomillastirishdir.)*

Tembr - tovush jarangdorligi, yorqinligi hamda uning yoqimligi va alohida ta’sirchanligidir.

“Texnologiya” yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib (*“techne”* - mahorat, san’at, malaka va *“logos”* – so‘z, ta’limot ma’nolarini anglatadi).

Tovush kuchi - tovush apparati organlarning faol ishlashiga bog'liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tarqashiga bo'lgan bosimi qancha katta bo'lsa, tovush ham shuncha kuchli bo'ladi.

Trenerning aktyorlik va rejissyorlik mahorati – o'quv – mashq mashg'ulotlarni o'tkazishda texnikaning tarkibiy qismi hisoblanib, trenerning shug'ullanuvchilar bilan muomala qilishning aql-idrokigagina emas, balki ularning his-tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatish, ularga sprot bo'yicha dunyoda ro'y berayotgan jarayonlarga munosabatda bo'lish tajribasini ancha to'liq bera bilish layoqati.

Trenerning mimikasi va pantomimikasi – sport ta'limi texnikasining tarkibiy qismi hisoblanib, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum orqali ijobiy yoki e'tiroz, tanqidiy ta'sir ko'rsatishda ancha samarali vosita.

Trenerning nutq mahorati – sport ta'limida texnik yondoshuvning tarkibiy qismi hisoblanib, jargonda emas adabiy tilda savodli gapirish, nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, fikr va his - tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalari.

Trenerning o'z hissiy (psixologik)holatini boshqarishi - sport ta'limida texnik yondoshuvning tarkibiy qismi hisoblanib, shug'ullanuvchiga o'zaro ta'sir ko'rsatishda, eng qulay hissiy (ijodiy) jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixoxlik kayfiyatini saqlash, o'zining dam olishini tashkil etish mahorati. *(Bu mahorat ko'p yillar davomida sog'lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyishga yordam beradi.)*

Hurmatga ega bo'lishlik qobiliyati - o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatli, mPedagoghkam irodasi bilan obro' orttirishi. *(Psixologiyada bu qobiliyat turini avtoritar qobiliyat deb yuritiladi.)*

Shaxsiy kompetentlik – Trenerning tizimli ravishda kasbiy faoliyatini rivojlantirishiga harakati, malaka darajasini oshirib borish, faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilishi.

Ekstralingvistik tizim (*ingl. "exterior" – "tashqarida", nem. "linguistik" – "til"*) – muloqotdagi shaxsning ijtimoiy vazifalari bilan bevosita bog'liq holda nutqning tashkil etilishi (*nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo'talish, nafas olish, yig'lash, tutilish va b.*)ni ifodalovchi tizim.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (*tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan*)da, turli nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

O'zini - o'zi baholash – trenerning o'z-o'zini tahlil qilishi, refleksiya orqali o'z faoliyatiga korreksiyalar kiritishi va baho berishi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish – trenerning o‘zidagi kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

O‘z ustida ishlash – Trenerning ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo‘lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi

Qobiliyat – Trenerning sport sohasidagi faoliyatni o‘zlashtirishi, egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyat.

His etish madaniyati – Trenerning kasbiy madaniyatning tarkibiy elementlaridan bo‘lib, shug‘ullanuvchilarning qobiliyati, iste’dodi, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlarini xis eta olishi, ular bilan samarali muloqotni tashkil etishini bildiradi.

Releksatsiya – kuchli hayajon va jismoniy zo‘riqishdan so‘ng yengil tortish, tinchlanishning umumiy holati.

Relaksopediya - Lotincha “*relaxation*” – quvvatsizlik, zaiflashish, ruhan yoki jismonan holdan toyishni bartaraf etish.

Strateg - (*yunoncha, stragos, stratus - qo‘shin va ago – boshlab boraman*) . Yunonstonda keng xarbiy va siyosiy vakolatlarga ega bo‘lgan lashkarboshi. Hozirgi ma’noda – yirik harbiy operatsiyalar(amaliyotlar)ga rahbarlik qiluvchi sarkarda. Sport sohasida bosh trener.

Strategiya - sport va boshqa jarayonlarda vaziyatni oldindan o‘rganish asosida rejalashtirilgan maqsadga erishishning samarali harakat yo‘lidir.

Strategik qaror - rahbarning sport va sport ta’limi jamoasining istiqbolga yo‘naltirilgan maqsad va vazifalari ifodasi.

“Sport razvedkasi” - sportchining raqibi to‘g‘risidagi strategik ma’lumotlar, musobaqa o‘tkazish joyi va shart – sharoiti kabilar.

Suggestiya – muloqot shaklida sportchi(suggerend)ga ta’sir ko‘rsatuvchi, ishontiruvchi trener (suggestor)ning, aytganlarini passiv, ixtiyorsiz, o‘ylamasdan o‘zlashtiradigan va uning topshiriqlarini to‘la ishonch hosil qilib mutelik bajaruvchi sportchi va shug‘ullashuvchilar.

Taktika.- belgilangan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan vosita va usullar majmuasi. Taktika operativlik san’ati va strategiyaga bo‘ysunadi. (*yunoncha tasso - atamasi o‘zbek tilida “saflayman”, “tartib”, “tartiblashgan” ma’nolarni anglatadi.*)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston STRATEGIYASI . Toshkent: O‘zbekiston. – 2022y. 458 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 400b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.

II. Normativ - huquqiy hujjatlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni.04.09.2015y
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmish tarzini keng tadbiq etish va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakillantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5713331>

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli qarori

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 658–sonli qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “2025-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-son qarori. <https://lex.uz/docs/5713410>

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3863838>

III. Maxsus adabiyotlar

- 1.Abdukarimov H. Umumiy pedagogika. -Toshkent: Yangi asr avlodi., 2012.-110 b.
- 2.Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 69 b.
- 3.Akramov A.K. O'zberkistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. T., 1997y.
- 4.Abdumalikov R. O'zberkistonda jismoniy madaniyat va sport tarixinio'rganish masalalari.T., Bilim, 1994y.
- 5.A.Akmalov Sport, malaka oshirish ta’limida innovatsion va interfaol texnologiyalar . uslubiy qo‘llanma., “Umid Design” T.: 2022y.70 b.
- 6.Djurayev R. X., Tolipov O‘. Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent: O‘zPFITI. - 2008. 125 b.

- 7.Zunnunov A. Pedagogika tarixi., Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik, T.: Sharq, 204y. 335b.
- 8.Zunnunov A. va boshqalar O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. –Toshkent: Fan, 1996. – 350 b
- 9.Salamov R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, Darslik – Toshkent, 2015.y.
- 10.Munavvarov A.Q. taxriri ostida .”Pedagogika” darslik - T.: O‘qituvchi, 1996y .- 200b.
- 11.Yo‘ldoshyev J.G‘. Xorijda ta’lim -Toshkent: Sharq, 1995.-92 b.
12. Toxtaxodjayeva M., Nishonova S., Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, O‘qituvchi - 2006.- 345
13. Pod redaksiyey P.I. Pidkasistogo. “Pedagogika”, uchebnik- M.: 2004. 604.str.
- 14.Xoshimov K., Ochilov., O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi.T.: “O‘qituvchi” 1995y. 460b.
- 15.Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.- 352 b.
- 16.Eshnazarov J. Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish . T., 2008y.
- 17.Belousova V.V., Resheten N.N., taxriri ostida Pedagogika, Fizkultura institutlari uchun darslik, T.: O‘qituvchi 1983y. 302b.
18. Xo‘jaev F. . O'zberkistonda jismoniy tarbiya. T., O'qituvchi, 1997y.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. www.minsport.uz
2. www.uzedu.uz
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.uz-djti.uz
5. www.sportedu.uz
6. www.olympic.uz
7. www.ziyonet.uz.
8. www.infocom.uz.
9. www.edu.uz

MUNDARIJA

I. ИШЧИ ДАСТУР	2
II. МОДУЛНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ	11
III. NAZARIY TA'LIM MAZMUNI	25
IV. AMALIY TA'LIM MAZMUNI	75
V. "SPORT PEDAGOGIKASI" MODULIDAN TESTLAR	113
VI. GLOSSARIY	121
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI	128
VIII. MUNDARIJA	131

